


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

CHIZIQLI BURCHAKLI VA AKUSTIK O'LCHASHLAR

fanidan
laboratoriya ishlarini bajarish uchun
uslubiy ko'rsatmalar



Toshkent – 2016

Asimova M.M., Kenjayeva Z.S. Chiziqli burchakli va akustik o'lhashlar. – Toshkent: ToshDTU, 2016. 72 b.

Mazkur uslubiy ko'rsatma "5310900 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" bakalavriat ta'lim yo'nalişidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda chiziqli va burchakli siljishlarni qo'zg'aluvchan o'lchamli o'zgartkich yordamida o'lhash, qo'zg'aluvchan ekranli elektromagnit o'zgartkich yordamida o'lhash, qo'zg'aluvchan o'zakli elektromagnit o'zgartkich yordamida o'lhash, kirish kromkasining doirasimon shakli radiusini o'lhash uchun radiusomer, kichik siljishlar uchun optoelektron o'zgartkichdan iborat.

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi
qaroriga muvofiq chop etilgan.*

Taqrizchilar

- Xakimov O.Sh. - "O'zstandart" agentligi SMSITI
"Metrologiya ilmiy tadqiqot bo'limi" bosh
mutaxassis, t.f.d;
Shipulin Yu.G. - ToshDTU "Boshqaruvda axborot
texnologiyalari" kafedrasi professori.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2016

1 – LABORATORIYA ISHI


Chiziqli va burchakli siljishlarni qo‘zg‘aluvchan o‘lchovchi chulg‘amli o‘zgartkich yordamida o‘lhash

1. Ishdan maqsad

Turli xil harakatlanuvchan (o‘zaro almashadigan) elementlarga ega, elektromagnit parametrlar bilan taqsimlangan differential transformatorli o‘zgartkichlarning konstruksiyasi va ishslash prinsipini o‘rganish. O‘zgartkichning nochiziqli statik xarakteristikasi darajasini aniqlashning grafik usullari bilan tanishish.

2. Ishning nazariy qismi


II-simon magnitoo‘tkazgich asosida elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiyasi va ishslash prinsipi



1.1-rasm. Elektromagnit o‘zgartkichning fizik modeli:

1-*P*-simon magnit o‘tkazgich; 2-harakatlanuvchi chulg‘am; 3-o‘lhash chulg‘ami;

U, I – kuchlanish va tok; F_M – magnit o‘tkazgich 1 ning magnit oqimi



1.2-rasm. X koordinatasi bo‘ylab $F_M(x)$ ning taqsimlanish grafigi

Magnit o‘tkazigich bo‘ylab $F_M(x)$ ning taqsimlanish natijasida harakatlanuvchi elementli (o‘lhash chulg‘ami, ekran va o‘zak) elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiyasini yaratish mumkin.

Ushbu laboratoriya ishida $F_M(x)$ taqsimlanishi chiziqli siljishlarni o‘lhash uchun ishlataladi.

Ma’lumki [1,2], o‘lhash chulg‘ami 3 ning chiqishida magnit oqimi $F_M(x)$ o‘lhash chulg‘amining o‘ramlar sonidan chiqish kuchlanishi induksiyanadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$U_{\text{chiq}} = 2\pi f \omega \Phi_m(x), \quad (1.1)$$

bu yerda $\pi=3,14$, f – elektr tokining chastotasi, ω – o‘lhash chulg‘amining o‘ramlar soni.

(1.1) formula harakatlanuvchi o‘lhash chulg‘amli elektromagnit o‘zgartkichning statik xarakteristikasi hisoblanadi. Haqiqatan o‘lhash chulg‘amining chiqishida o‘lhash chulg‘amining siljish yo‘li bo‘ylab magnit oqimi $F_M(x)$ ning taqsimlanishi tufayli chiqish kuchlanishi U_{chiq} uning X koordinata bo‘yicha siljishida o‘zgaradi.

3. Ishning mazmuni

1. O'zgartkich siljishining harakati prinsiplari va konstruksiya bilan talabalarni yaqindan tanishtirish hamda tushuntirish.

2. O'zgartkichning qo'zg'aluvchan g'altagiga ulangan ikkilamchi asboblar - raqamli voltmetr va raqamli ampermetr tashqi ko'rigini o'tkazish. Asbob shkalasidagi yozuvlarni tushunib olish va ularni hisobotga kiritish.


3. O'zgartkich statik xarakteristikasini olish uchun sxema yig'ish va statik xarakteristikani tajribaviy aniqlab, grafik chizish. Bunda qo'zg'aluvchi elementlardan biri ko'rsatkichning nol holatini to'g'rilashga xizmat qiladi va tajriba mobaynida qo'zg'almasdan turadi.

4. Siljish o'zgartkichi statik xarakteristikasi nochiziqlilik darajasini grafik yo'l bilan hamda jadval bo'yicha 3-bo'limdagi tajriba ma'lumotlari yordamida aniqlash.

5. Statik xarakteristika eng to'g'ri chiziqli va nol signal (kvadratik tashkil etuvchi) eng kichik qiymatli bo'ladigan diapazon oralig'ini aniqlash.

4. O'zgartkichning metodik xarakteristikasini olishdagi ularash sxemalari

Qo'zg'aluvchan elementli elektromagnit o'zgartkich. Bu o'zgartkich o'zida o'lhash chulg'amlarini namoyon etadi (1.1-rasm).



1.3-rasm. Elektromagnit siljish o'zgartkichining konstruksiyasi:

qo'zg'aluvchan element – qo'zg'aluvchan o'lhash chulg'ami:

1-O'zgartkichning II - shakldagi magnit o'tkazgichi;

2-Harakatdagi chulg'am seksiyasi;

- 3-Qo'zg'aluvchan elementlar;
- 4-Chiziqli avtotransformator;
- 5-Ampermetr.

Magnit o'tkazgich uzunligi bo'ylab magnit oqimining taqsilish xususiyatidan chiziqli siljishni o'lhashda foydalilanildi.

5. Amaliy qism

Statik xarakteristikalarini eksperimental tadqiq qilish

Qo'zg'aluvchan o'lhash chulg'amli elektromagnit o'zgartkichning konstruksiyasi

1.1-jadval

| X sm | 1 | 3 | 5 | 7 | 9 | 11 | 13 | 15 | 17 | 19 | 21 | 23 | 25 | 27 |
|--------------------------|---|---|---|---|---|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| U_{chizq1} V | | | | | | | | | | | | | | |
| U_{chizq2} V | | | | | | | | | | | | | | |
| U_{chizq3} V | | | | | | | | | | | | | | |
| U_{chizq4} V | | | | | | | | | | | | | | |
| U_{chizq5} V | | | | | | | | | | | | | | |

6. Ishni tushuntirish va ko'rsatmalar

Ulash sxemasini yig'ish, uni tekshirish va o'qituvchi kuzatuvida uni kuchlanish tarmog'iga ularash. Chiziqli transformator yordamida harakatlanuvchi tok qiymatini o'rnatish va uni tajriba davomida o'zgarmas holatda ushlab turish. Kompensiyalovchi qo'zg'aluvchan elementni boshlang'ich holatga o'rnatish. Ishchi qo'zg'aluvchan elementni har safar 10 mm ga siljitish.

O'rtacha qiymat barcha o'rta arifmetik qiymat sifatida topiladi:

$$U_{o'rt} = \frac{U_1 + U_2 + \dots + U_n}{n} \quad (1.2)$$

bu yerda n – eksperimentlar soni ($n=10$), og'ish ΔU quyidagicha aniqlanadi $\Delta U = U - U_{chiz}$.

Jadval ma'lumotlari asosidagi nochiziqlilik darajasi qiymati foizlarda quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$\beta = \frac{\Delta U}{U_{\max} - U_{\min}} \quad (1.3)$$

Statik xarakteristika grafik ko'rinishda quyidagi bog'liqlik asosida tuziladi

$$U = f(x) \quad (1.4)$$

Agar boshqa shakldagi magnit o'tkazgichdan foydalanilsa, unda burchak siljishining statik xarakteristikasi bo'yicha o'lhash mumkin, ya'ni bog'liqlik

$$U_{chiq} = f(\varphi) \quad (1.5)$$

Nazorat savollari

1. Siljish o'zgartkichi qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
2. Qisqa tutashtirilgan o'ramli qo'zg'aluvchan elementga ega o'zgartkichni ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
3. O'zgartkich statik xarakteristikasi deb nimaga aytildi?
4. O'zgartkich statik xarakteristikasining nochiziqlilik darajasi deb nimaga aytildi va u qanday qilib grafik tarzda aniqlanishi mumkin?
5. Siljish o'zgartkichi sezgirligini qanday qilib oshirish mumkin?
6. O'zgartkichda qanday xatolik manbaalari mavjud?
7. Differensial konstruksiyali o'zgartkichning P – shaklli magnit o'tkazgichli o'zgartkichdan qanday farqli jihatlari mavjud?
8. O'zgartkichning kvadrat tashkil etuvchisi deb nimaga aytildi?

2 – LABORATORIYA ISHI

Chiziqli va burchakli kattaliklarni mexanik asboblar yordamida o'lhash

1. Ishdan maqsad

Laboratoriya ishining maqsadi chiziqli o'lchamlar (chizg'ich, shtangensirkul va mikrometr)ni o'lhash vositalarini o'rganish va chiziqli o'lchamlarning o'lhash natijalarini qayta ishlash orqali ularning metrologik xarakteristikalarini aniqlash.

2. Nazariy qism

Uzunlikni bevosita o'lhash uchun santimetr va millimetrlar bo'lim qiymatli masshtabli chizg'ichlar keng qo'llaniladi. Chizg'ichning bo'lim qiymati deb eng kichik bo'lim uzunligiga aytildi. Bo'lim qiymati 1 mm bo'lgan masshtabli chizg'ich uchun o'lhashda maksimal xatolik yarim bo'lim qiymatidan oshmaydi, shuning uchun, masshtabli chizg'ichlarda o'lhashda o'lhash aniqligi yarim bo'lim qiymatiga teng bo'ladi, ya'ni 0,5 mm dan oshmaydi. Yuqori aniqlik bilan o'lhashni amalga oshirish kerak bo'lsa noniuslar bilan jihozlangan asbob – shtangensirkuldan foydalaniladi.

Bu holda aniqlik asosiy bo'lim qiymatining 0,1 – 0,01 ulushiga to'g'ri keladi. Kichik o'lchamlarni o'lhash uchun (qalinlik, sim radiusi va boshqalar) mikrometrik vint bilan jihozlangan asboblardan foydalaniladi.

Shuningdek 0,01 – 0,005 mm aniqlik bilan o'lhash imkonini beruvchi mikrometrlar ham keng qo'llaniladi.

Nonius deb oddiy masshtablarda aniqlikni 10-20 marta oshiruvchi, uncha katta bo'limgan qo'shimcha shkalaga aytildi. Masalan, shtangensirkul millimetrlarga ajratilgan M mashtabdan iborat bo'lib, uning bo'ylama uzunligi bo'ylab vintli biriktirilishga ega oyoqcha harakatlanishi mumkin. Mashtab bo'limiga tik ravishda nonius o'rnatilgan. Masshtab bo'lim qiymati odatda 0,1;

0,02; 0,05 mm bo‘ladi. Nolda turgan paytda noniusning nol qiymati shkalaning nol qiymati bilan ustma-ust tushadi. Qo‘zg‘almas oyoqcha jismlarni o‘lchashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.


Detal uzunligini o‘lchashda natija quyidagicha hisoblanadi:

$$L = Nl_1 + n_l \Delta q \quad (2.1)$$

bu yerda N – masshtabning to‘liq bo‘limlari soni; l_1 – asosiy shkala bo‘lim qiymati; n – asosiy shkala bo‘limiga to‘g‘ri keluvchi nonius bo‘limi raqami; Δ – nonius aniqligi.

2.1-rasmda shtangensirkulning rasmi keltirilgan. U millimetrlar shkalalari shtang 1 dan va qo‘l bilan o‘zgartiriluvchi ramkali nonius shkalasi 2 dan tashkil topgan. Nonius shkalasining aniqligi 0,05 dan 0,1 mm gacha bo‘lishi mumkin. Shtang va ramka tashqi o‘lchashlarni amalga oshirish uchun 3 va 4 gubkalarga ega. Tutashtirilgan gubkalarda shkala bo‘yicha nol qiymat ko‘rsatiladi.

Shtangensirkulda 500 mm gacha o‘lchash jarayoni amalga oshirilganda $\pm 0,05$ mm xatolikka yo‘l qo‘yish mumkin.



2.1-rasm. Shtangensirkul:

1 - asosiy chizg‘ich-shtang; 2 - nonius shkalasi; 5 - ramka; 3, 4, 6, 7 gubkalar; 8 - gaykali vint; 9 - siqish vinti.

221111 modelli shtangensirkul quyidagi texnik xarakteristikalarga ega:

- o‘lchash diapazoni, mm: 0-125;
- nonius bo‘yicha hisoblash qiymati, mm: 0,1;
- 100 mm gacha bo‘lgan shkalalari tiplarida yo‘l qo‘yiladigan xatolik chegarasi: $\pm 0,06$;
- 100 mm dan yuqorilarida esa: $\pm 0,07$;
- aniqlik sinfi: 1;
- massasi, kg: 0,1.

Mikrometr

Mikrometr (grekchadan olingan bo‘lib, kichik, kichkina degan ma‘noni beradi) – kontaktli usulda chiziqli o‘lchamlarni aniqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchash asbobi hisoblanadi. Uning ishlash prinsipi burilish qadami va burchak kattaliklariga proporsional ravishda vintning chiziqli o‘zgarishiga mos keluvchi juft vintli prinsipiga asoslangan. Bu bog‘liqlikni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin


$$L=S \cdot \varphi \quad (2.2)$$

Bu yerda L – vintning chiziqli o‘zgarishi; S – vint qadami; φ – vintning burilish burchagi.

Qadamning doimiy qiymatlarida chiziqli o‘zgarish burilish burchagiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, mikrometrning aniqligi boshqa bir xil sharoitlarda qancha yuqori bo‘lsa, qadami shuncha kichik bo‘ladi va burchak burilishlarni aniq ifodalaydi. Shpindelning rezba qadami metrik mikrometrarda 0,5 yoki 1 mm ga teng. 0,5 mm qadamlili mikrometrarda o‘lchash barabani 50 shtrixli bo‘linmaga ega.

1 mm qadamlili mikrometrarda esa o‘lchash barabani 100 shtrixli bo‘linmaga ega. Bu esa 0,01 m gacha masofani o‘lchashga imkon beradi. Shpindelning uzunligi asbobning shkala bo‘yicha 25 mm o‘lchash chegarasidan boshlanib hisoblanadi (2.2-rasm).

Tashqi tomonni o‘lchash uchun mo‘ljallangan mikrometr ikki asosiy uzeldan tashkil topgan. Tekshirilayotgan buyum mikrometrning o‘lchash yuzasi oralig‘ida siqiladi.



2.2-rasm. Mikrometr:

1-o'lhash oyoqchasi; 2-halqa; 3-mikrometrik vint; 4-to'xtatuvchi vint; 5-stebl shkalasi; 6-mikrometrik noniusning shkalasi; 7-baraban; 8-treshotka; 9-to'xtatuvchi vint barabani.

Mikrometrning doimiy o'lhash chegarasi $500 \div 900$ oraliqda bo'ladi. Trishotka 8 bilan ta'minlangan. Mikrometr o'zida $0-25$; $25-50$ mm hamda 1000 mm gacha bo'lgan uzunliklarni o'lhash uchun qo'llaniladi. Aniqlik sinfi bo'yicha mikrometrler uchga bo'linadi. Masalan, $0-25$ mm li ko'rsatkichga ega mikrometrning xatoligi ± 2 ; ± 4 i ± 8 mkm dan oshmaydi. 2211212 modelli mikrometr quyidagi texnik xarakteristikalariga ega:

| | |
|---|---------------|
| - o'lhash diapazoni, mm | 25-50, 50-75; |
| - bo'linma o'lchami | 0,1; |
| - aniqlik sinfi | 1; |
| - yo'l qo'yadigan xatolik oralig'i, mm | $\pm 0,002$; |
| - o'rnatilgan o'lchovning nominal o'lchami, mm massasi, kg | 25; 0,350 |

Chiziqli o'lchamlarni o'lhash vositalarining metrologik xarakteristikalarini

Chiziqli o'lchamlarni o'lhash vositalarining muhim xarakteristikalaridan biri metrologik xarakteristika hisoblanadi.

Shkala (lotinchadan olingan Scala-zina ma'nosini beradi) – o'lhash asbobining ma'lum qiymatini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan qurilma, u bir qancha belgilari, shtrixlar, nuqtalarga ega bo'ladi.

Shkalaning bo'linma intervali bu shkala shtrixlarining ikki qo'shni o'qi orasidagi masofasidir.

O'lchanayotgan kattalikning i-qiyomi shkala bo'linma qiymatining biriga mos tushishi kerak.

O'lhash vositasining sezgirligi S – ko'rsatkichning (o'zgarmas shkalada) chiziqli yoki burchakli siljishi yoki shkalaning (o'zgarmas ko'rsatkichda) o'lchanayotgan kattaliklarning o'garishiga munosabati hisoblanadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{C}{i}; \quad (2.3)$$

bu yerda S – shkalaning bo'linma intervali, i – shkalaning bo'linma qiymati.

Sezgirlik ostonasi – o'lhash vositasidan olinadigan o'lhash kattaligining eng katta qiyomati.

Shtangensirkul quyidagi metrologik xarakteristikalariga ega:


- o'lhash diapazoni: $0-125$ mm;
- nonius bo'yicha hisobiy qiyomi: $0,1$ mm;
- shkala bo'linmasining intervali: $s=1$ mm;
- bo'linma qiyomi: $i=0,1$ mm;
- sezgirligi: $S=10$ mm/mm;
- yo'l qo'yadigan xatolik chegarasi: $\pm 0,7$ mm;
- shtangensirkulning aniqlik sinfi 1.

Mikrometr quyidagi metrologik xarakteristikalariga ega:

- o'lhash diapazoni: $50-75$ mm;
- nonius bo'yicha hisobiy qiyomi: $0,01$ mm;
- shkala bo'linmasining intervali: $s=1$ mm;
- bo'linma qiyomi: $i=0,01$ mm;
- sezgirligi: $S=100$ mm/mm;
- yo'l qo'yadigan xatolik chegarasi: $\pm 0,002$ mm;
- shtangensirkulning aniqlik sinfi 1.

Mikrometrik vint usuli (mikrometr)

Uzunlikni aniq o'lchanayotgan vint, ya'ni kichik qadamli va qadamlari orasi aniq oraliqda saqlangan vint keng qo'llaniladi (2.3 - rasm).




2.3-rasm. Richagli mikrometr

Bunday vintlar mikrometrlerda, sferometrlarda va hokazolarda keng qo'llaniladi. Mikrometrlerda o'lchanayotgan obyekt vint yordamida qisiladi. Vintning bir yurish qadami odatda 1 yoki 0,5 mm bo'ladi. Vint *A* ning sterjeniga 50 yoki 25 bo'linishlarga ega shkalalari baraban *S* qotirilgan. Vint yopiq holatida baraban noli chiziqli shkala noliga qarama-qarshi holatda bo'ladi. O'lchanayotgan predmet vint va unga qarama-qarshi tayanch orasiga qo'yiladi va vintni predmetga tekkunicha burab yaqinlashtiriladi. To'g'ri chiziqli shkala bo'yicha millimetrlar hisoblanadi, baraban shkalasi bo'yicha millimetrnинг yuzdan bir ulushlari hisoblaniladi. Bu holatda agar vint o'lchanayotgan predmetga notejis joylashib qolsa, bu xatolik manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu kamchilikga yo'l qo'ymaslik uchun mikrometrlerda o'lchanayotgan predmetga kuchli bosilishning oldini oluvchi qurilma mavjud bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi

Chiziqli nonius usuli

1. Trubka ichki va tashqi diametrlari hamda uzunligi o'lchanadi. Har bir parametr 6-10 marta turli joylardan o'lchab amalga oshiriladi va undan keyin o'rtacha qiymati hisoblanadi.
2. Trubka hajmi hisoblanadi va o'lchash aniqligi hisoblanadi.



2.4-rasm. Parametrlari o'lchanayotgan detal

Mikrometrik nonius usuli

1. Mikrometrdan foydalanishdan oldin nol nuqta o'rashish holati tekshirilishi kerak, ya'ni asbob to'g'ri sozlanganligiga ishonch hosil qilish kerak, oyoqchalar bir-biriga tegib turganida gorizontal shkalanling nol qiymati silindrik shkalanling nol bo'lim qiymati bilan ustma-ust tushishi kerak. Agar nol bo'limlar mos tushmasa, asbobning sistematik xatoligi hisobga olinishi kerak. Vint qadami qiymati va baraban bo'lim qiymati aniqlab olinadi. Mikrometr bilan plastinka qalinligi va sim diametri aniqlanadi.

2.1-jadval

| | | | | | | |
|------------------|--|--|--|--|--|--|
| D _{1mn} | | | | | | |
| D _{2mn} | | | | | | |
| D _{3mn} | | | | | | |
| D _{4mn} | | | | | | |
| D _{5mn} | | | | | | |
| l _{1mn} | | | | | | |
| l _{2mn} | | | | | | |
| l _{3mn} | | | | | | |
| l _{4mn} | | | | | | |
| l _{5mn} | | | | | | |

O'rtacha arifmetik qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{D}_{o'r.ar.} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n D_i \quad (2.4)$$

$$l_{o'r.ar.} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n l_i \quad (2.5)$$

O'rtacha kvadratik qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_D = \sqrt{\frac{(\bar{D}_i - \bar{D}_{cp.ap.})^2}{n-1}} \quad (2.6)$$

$$\sigma_e = \frac{1}{n} \sqrt{\frac{(l_i - l_{cp.ap.})^2}{n-1}} \quad (2.7)$$

Sinov savollari

1. Shtangensirkulning o'lchash chegarasi qanday diapazonlarda olinishi mumkin?
2. Richagli mikrometr qanday elementlardan tashkil topgan?
3. Mikrometrlarning xatolik chegarasini aytинг?
4. Chiziqli o'lchamlarni o'lchash vositalarining metrologik xarakteristikalarini.

3 – LABORATORIYA ISHI

Potensiometrik o'lchash asboblari

Ishdan maqsad

Potensiometrik o'lchash qurilmalarining ishlash prinsipi va nazariyasini o'rGANISH. Potensiometrik o'zgartkichlarning konstruksiyasi va o'lchash sxemasi bilan tanishish, ularning xarakteristikalarini va xatolik manbalarini tajribavni aniqlash.

Ishni bajarish tartibi

1. Chiziqli va burchakli siljishlar potensiometrik o'zgartichining ishlash prinsipi va konstruksiyasi bilan tanishish.
2. Barcha qo'llanilayotgan asboblarning texnik ma'lumotlari bilan tanishish va ularni hisobotga kiritish.
3. Potensiometrik o'zgartichning bir yelkali va ikki yelkali sxemalarini yig'ish.
4. Potensiometrik o'zgartichning statik xarakteristikasini olish.
5. Tajriba ma'lumotlari asosida potensiometrik o'zgartich statik xarakteristikasini topish va uning nochiziqligini hamda xatolikning additiv va multiplikativ tashkil etuvchilarini aniqlash.

Ulash sxemasi

U₀ – manba kuchlanishi;

U_{Ch} – chiqish kuchlanishi;




R, L – potensiometrik datchikning mos ravishda to'liq qarshiligi va uzunligi (burchakli siljishlarda diapazon φ_d=180 grad ga teng bo'ladi);

φ – sirpanuvchi kontakt S ning burchak siljishi;

r, r_φ – potensiometrik datchikning mos ravishda ayni vaqtdagi qarshiligi;

S₁ va S₂ – potensiometrik datchiklarning solishtirma parametrlari;

R_n – yuklanish qarshiligi.



3.1-rasm. Potensiometrik o'lchash qurilmasining ularash sxemasi

a) U_0 kuchlanish potensiometrik datchikning A va B nuqtalariga ulanadi, b) chiqish kuchlanishi U_{chiq} esa c) shu nuqtalardan biri va sirpanuvchi kontakt C dan olinadi.

Yuklanishsiz potensiometr uchun (3.1a-rasm) chiziqli siljishni o'lchash:

$$U_{chiq} = U_0 \frac{r_x}{R} = U_0 \frac{x}{L} \quad (3.1)$$

Burchakli siljish uchun esa

$$U_{chiq} = U_0 \frac{r_\varphi}{R} = U_0 \frac{\varphi}{180} \quad (3.2)$$

formulalari bilan ifodalanadi.

Potensiometrning r_x va x parametrlari orasidagi bog'lanish quyidagicha:

$$r_x = S_1 x; \quad S_1 = R / L \quad [\Omega / m] \quad (3.3)$$

hamda r_φ va φ parametrlari bilan quyidagicha ifodalanadi:

$$r_\varphi = S_2 \cdot \varphi; \quad S_2 = \frac{R}{180} \quad [Om/grad] \quad (3.4)$$

Agar potensiometrning qarshiligi murakkab qonuniyat bo'yicha o'zgarsa, unda:

$$\begin{aligned} r_x(x) &= S(x)x, \quad r_\varphi(\varphi) = S_2(\varphi)\varphi, \\ S(x) &= f(R, x); \quad S(\varphi) = f(R, \varphi) \end{aligned} \quad (3.5)$$

Yuqorida (3.1a-rasm) tasvirlangan potensiometr erkin haraktlanish rejimida ishlaydi – bu potensiometrik datchikning eng sodda ishlash rejimidir.

Potensiometrga yuklanish ularash prinsipal sxemasi 3.1,b-rasmida tasvirlangan. Potensiometr doimiy qarshilik sifatida yuklanishga ulangan. Sxemadan potensiometrning chiqish kuchlanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$U_{chiq} = U_0 \frac{r_x}{R} k = U_0 \frac{x}{L} k \quad (3.6)$$

bu yerda $k = \frac{R_h}{R_h + \frac{r \cdot r_x}{r + r_x}}$ – potensiometr yuklanish koeffitsiyenti

$k=1$ bo'lganda erkin harakatlansh rejimida bo'ladi
 $k=0$ bo'lganda esa qisqa tutashish rejimida bo'ladi.

Amaliy qism

| Burchakli o'lchashlar | 3.1-jadval | | | | | | | |
|-----------------------|------------|----|----|-----|-----|-----|-----|-----|
| X_{grad} | 0 | 45 | 90 | 135 | 180 | 225 | 270 | 315 |
| $U_{to'g'}, V$ | | | | | | | | |
| U_{tes}, V | | | | | | | | |
| $U_{o'rt}, V$ | | | | | | | | |

Eksperimental tadqiqotlar natijasiga asoslanib quyidagilarni aniqlaymiz:

1. O'rtacha arifmetik qiymat

$$U_{o'r.ar} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n U_i \quad (3.7)$$

2. O'rtacha kvadratik qiymat

$$\sigma = \sqrt{\frac{(U_i - U_{o'r.ar})^2}{n-1}} \quad (3.8)$$

Nazorat savollari

- Potensiometrik datchik qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
- Potensiometrik datchiklarning qanday ishlash rejimlarini bilasiz?
- Potensiometrik datchiklarning qanday xatolik manbalarini bilasiz?
- Potensiometrik datchiklarning yuklanganlik koeffitsiyenti uning statik xarakteristikasiga qanday ta'sir qiladi?
- Datchikning sezgirligi va to'g'ri chiziqliligi qanday qilib oshirilishi mumkin?

4 – LABORATORIYA ISHI

Optoelektron siljish o'zgartkichi


Ishdan maqsad


Kovak yorug'lik diodi asosidagi optoelektron siljish o'zgartkichlarining nazariyasi, tuzilishi va ishslash prinsipini o'rganish. O'zgartkichning konstruksiysi va o'lchash sxemasi bilan tanishish, xarakteristikalarini, xatolik manbalarini tajribaviy aniqlash.

Ishning tartibi

- Chiziqli optoelektron siljish o'zgartkichlarining tuzilishi, ishslash prinsipi va vazifikasi bilan tanishish.
- Qo'llanilayotgan barcha o'lchash asboblarining texnik ma'lumotlari bilan tanishish va ularni hisobotga kiritish.
- Kovak yorug'lik diodi asosidagi optoelektron o'zgartkichni tadqiqot qilish uchun sxemani yig'ish.
- Optoelektron o'zgartkichlarning statik xarakteristikalarini olish.
- Tajriba ma'lumotlari asosida statik xarakteristikani tasvirlash va o'zgartkich xatoligini aniqlash.

Konstruksiysi va ulanish sxemasi






4.1-rasm. Kovakli yorug'lik diodi asosidagi optoelektron o'zgartkich konstruksiyasi: a) Kovak yorug'lik o'ikazgichlar asosidagi, qo'zg'aluvchan nur qabul qilgichga ega optoelektron o'zgartkich. NM – nurlanish manbai (elektrik lampochka);


QNQQ – qo'zg'aluvchan nur qabul qilgich (fotodiod);

QKYOD – qo'zg'almas kovakli yorug'lik diodi; P – porshen, Sh – shkala; K – ko'rsatkich. b) Qo'zg'aluvchan kovakli yorug'lik diodli optoelektron o'zgartkichning NM – nurlanish manbai (elektrik lampochka); QKYOD – qo'zg'almas kovakli yorug'lik diodi;

QKYOD – qo'zg'aluvchan kovakli yorug'lik diodi;



a)



b)

4.2 - rasm. Kovak yorug'lik diodli optoelektron o'zgartkichning o'lchash sxemalari: a – bo'luvchi (yoki muddatli) sxema; b – ko'priki sxema; FD₁, FD₂ – fotodiód; R₁, R₂ – o'lchash sxemasining qarshiligi; U_m – manba kuchlanishi; U_{chiq} – chiqish kuchlanishi; RV – raqamli voltmetr.

Kuzatish natijalarini va hisoblashlar jadvali

4.1-jadval

| X _{mm} | | | | | | | |
|-------------------------|--|--|--|--|--|--|--|
| U _{chiq to'g'} | | | | | | | |
| U _{chiq tes} | | | | | | | |

Jadval ostida o'zgartkich xili ko'rsatilishi kerak.

Kovakli yorug'lik diodi asosidagi kichik siljishlar optoelektron o'zgartkichida jami yorug'lik oqimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$\phi_{\sum \varepsilon}^{(x)} = \phi_{to'g'}^{(x)} + \phi_{tes}^{(x)} \quad (4.1)$$

Bu yerda $\phi_{to'g'}^{(x)} = \frac{IS}{\chi^2}$ - nur qabul qilgichga to'g'ridan-to'g'ri tushayotgan yorug'lik oqimi.

NQQ ga kovak ichki devoridan qaytib tushayotgan yorug‘lik oqimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$\phi_{tes}^{(x)} = IS \left(\frac{1}{x_0^2} - \frac{1}{x^2} \right) \int_{U_x}^{U_0} \beta^{\frac{X_n i}{D}} du \quad (4.2)$$

bu yerda I – yorug‘lik kuchi; S – yorug‘lik o‘tkazgich ko‘ndalang kesimi; x – qo‘zg‘aluvchan elementning siljish koordinatasi; x_0 – boshlang‘ich koordinata; D – yorug‘lik o‘tkazgich diametri; β – yorug‘lik o‘tkazgich material ichki devorining nur qaytarish koeffitsiyenti; U – nurning yorug‘lik o‘tkazgich bo‘ylab og‘ish burchagi. U_0 – yorug‘lik oqimi boshlang‘ich chiqish burchagi; U_x – kovakli yorug‘lik o‘tkazgichda yorug‘lik oqimining ayni bir vaqtgagi tarqalish burchagi.

Nazorat savollari

1. Kovakli yorug‘lik diodi asosidagi kichik siljishlar optoelektron o‘zgartkichlari qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
2. Qo‘zg‘aluvchan diskli optoelektron o‘zgartkichning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
3. Nur qabul qilgichning qanday turlarini bilasiz?
4. O‘zgartkichning sezgirligini qanday qilib oshirish mumkin?
5. Optoelektron o‘zgartkichning qanday asosiy xatoliklarini bilasiz?
6. Optoelektron o‘zgartkichning qanday konstruksiyasi differensial deb ataladi?

5 – LABORATORIYA ISHI

Chiziqli va burchakli siljishlarni qo‘zg‘aluvchan ekranli elektromagnit o‘zgartkich yordamida o‘lhash


Ishdan maqsad

Qo‘zg‘aluvchan ekranli elektromagnit o‘zgartkich konstruksiyasini, xususiyatlarini va ishslash prinsipini o‘rganish. O‘zgartkich statik xarakteristikasi nochiziqlilik darajasini aniqlashning grafik usuli bilan tanishish.


Ishning tartibi:

1. Siljish o‘zgartkichining ishslash prinsipi va konstruksiysi bilan batafsil tanishish, o‘zgartkich qo‘zg‘aluvchan elementi 5.1-rasmda tasvirlangan: bu yerda, qisqa tutashtirilgan halqa – qo‘zg‘aluvchan ekran hisoblanadi.
O‘zgartkich sxematik eskizini chizing.
2. O‘zgartkich maydon hosil qiluvchi g‘altagiga ulangan ikkilamchi asboblar – raqamlı voltmetr va raqamlı ampermetr tashqi ko‘rigini o‘tkazish. Asbob shkalasidagi yozuvlarni tushinib olish va ularni hisobotga kiritish.
3. O‘zgartkich statik xarakteristikasini olish uchun sxema yig‘ish va statik xarakteristikani tajribaviy aniqlab, grafik chizish.
4. Siljish o‘zgartkichi statik xarakteristikasi nochiziqlilik darajasini tajriba ma’lumotlari jadvali yordamida va grafik usul yordamida aniqlash.
- 5 Statik xarakteristika eng to‘g‘ri chiziqli va nol signal (kvadratik tashkil etuvchi) eng kichik qiymatli bo‘ladigan diapazon oralig‘ini aniqlash.

P-simon magnit o‘tkazgich asosidagi elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiysi va ishslash prinsipi (5.1-rasm).



5.1-rasm. Elektromagnit o‘zgartkichning asosiy elementlari va fizikaviy modeli: 1-P-simon magnitoo ‘tkazgich; 2-ko‘zg‘aluvchan chulg‘am; U, I – kuchlanish va tok; F_M – magnit o‘tkazgich bo‘yicha magnit oqimi; 3-ekran; 4-tarqalgan o‘lchash chulg‘ami




5.2-rasm. F_M ning taqsimlanish grafigi

Magnit o‘tgazgich 1 bo‘ylab F_M ning taqsimlanishi asosida harakatlanuvchi elementli elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiyasi ishlab chiqilishi mumkin.

O‘zgartkichning statik xarakteristikasini olish uchun ulash sxemasi

Qo‘zg‘aluvchan element bilan qisqa tutashtirilgan halqa elektromagnit o‘zgartkichni tashkil etadi (5.3-rasm).



5.3-rasm. Elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiysi:

1-o‘zgartkichning P-simon magnit o‘tkazgichi; 2-qiluvchi chulg‘amning sekisiysi; 3-ko‘zg‘aluvchan element, ya’ni magnitli ekran; 4-o‘lchash chulg‘ami; 5-chiziqli avtotransformator

Magnit o‘tkazgich uzunligi bo‘ylab magnit oqimining taqsimlanish xususiyatidan chiziqli siljishni o‘lchashda foydalaniladi.

Amaliy qism Statistik xarakteristikalarini eksperimental tadqiq qilish

1. Qo‘zg‘aluvchan ekranli elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiysi $U_{чиq} = f(\varphi)$

5.1-jadval

| X, sm | 1 | 3 | 5 | 7 | 9 | 11 | 13 | 15 | 17 | 19 | 21 | 23 | 25 |
|----------------|---|---|---|---|---|----|----|----|----|----|----|----|----|
| $U_{чиq1}$, V | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{чиq2}$, V | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{чиq3}$, V | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{чиq4}$, V | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{чиqн}$, V | | | | | | | | | | | | | |

Ishni tushuntirish va ko'rsatmalar

Ulash sxemasini yig'ish, uni tekshirish va o'qituvchi kuzatuvida uni kuchlanish tarmog'iga ulash. Chiziqli transformator yordamida maydon hosil qiluvchi tok qiymatini o'rnatish va uni tajriba davomida o'zgarmas holatda ushlab turish. Kompensiyalovchi qo'zg'aluvchan elementni boshlang'ich holatga o'rnatish. Ishchi qo'zg'aluvchan elementni har safar 10 mm ga siljitsish.

O'rtacha qiymat barcha qiymatlarning o'rta arifmetigi sifatida topiladi:

$$U_{o'rt} = \frac{U_1 + U_2 + \dots + U_n}{n} \quad (5.1)$$

bu yerda n – eksperimentlar soni ($n=10$)

ΔU ni U dan og'ish qiymati quyidagicha topiladi: $\Delta U = U - U_{chiz}$. Jadval ma'lumotlari asosidagi nochiziqlilik darjasini qiymati foizlarda quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$\beta = \frac{\Delta U}{U_{\max} - U_{\min}} \quad (5.2)$$

Statik xarakteristika grafik ko'rinishda quyidagi bog'liqlik asosida tuziladi:

$$U_{chiq} = f(x) \quad (5.3)$$

Nazorat savollari

1. Siljish o'zgartkichlari qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
2. Qisqa tutashtirilgan o'ramli qo'zg'aluvchan elementga ega o'zgartkichni ishslash prinsipi nimaga asoslangan?
3. O'zgartkich statik xarakteristikasi deb nimaga aytildi?
4. O'zgartkich statik xarakteristikasining nochiziqlilik darjasini deb nimaga aytildi va u qanday qilib grafik tarzda aniqlanishi mumkin?
5. Siljish o'zgartkichi sezgirligini qanday qilib oshirish

mumkin?

6. O'zgartkichda qanday xatolik manbalari mavjud?
7. Differensial konstruksiyadagi o'zgartkich Π – shaklli magnit o'tkazgichga ega o'zgartkichdan qanday farqli jihatlarga ega?
8. O'zgartkich qanday qiymatlarda o'rtacha kvadratik xatolikka ega bo'ladi?

6 – LABORATORIYA ISHI

Chiziqli va burchakli siljishlarni qo'zg'aluvchan o'zakli elektromagnit o'zgartkich yordamida o'lhash

Ishdan maqsad

Qo'zg'aluvchan o'zakli elektromagnit o'zgartkich konstruksiyasini, xususiyatlarini va ishslash prinsipini o'rganish. O'zgartkich statik xarakteristikasi nochiziqlilik darjasini aniqlashning grafik usuli bilan tanishish.

Ishning tartibi:

1. Siljish o'zgartkichi ishslash prinsipi va konstruksiyasi bilan batafsil tanishish, o'zgartkichning qo'zg'aluvchan elementi – ferromagnitli element 6.1-rasmida tasvirlangan.
2. O'zgartkich maydon hosil qiluvchi g'altagiga ulangan ikkilamchi asboblar – raqamlı voltmetr va raqamlı ampermetr tashqi ko'rigini o'tkazish. Asbob shkalasidagi yozuvlarni tushinib olish va ularni hisobotga kiritish.
3. O'zgartkich statik xarakteristikasini olish uchun sxema yig'ish va statik xarakteristikani tajribaviy aniqlab, grafik chizish.
4. Siljish o'zgartkichi statik xarakteristikasi nochiziqlilik darjasini tajriba ma'lumotlari jadvali yordamida va grafik usul yordamida aniqlash.

5. Statik xarakteristika eng to‘g‘ri chiziqli va nol signal (kvadratik tashkil etuvchisi) eng kichik qiymatli bo‘ladigan diapazon oralig‘ini aniqlash.

Elektromagnit o‘zgartkichning chiqish kuchlanishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:


$$U_{\text{byx}} = 2nf\omega_l \cdot x \int_0^x F_m(x) dx, \quad (6.1)$$

bu yerda: $P=3,14$; f – elektr tokining chastotasi; L – magnit o‘tkazgichning uzunligi, $\omega_l = \frac{\omega_{uo}}{L}$ -

Magnit qimi quyidagiga teng:

$$\bar{F}_m(x) = \int_0^x F_m(x) dx. \quad (6.2)$$

O‘zgartkich statik xarakteristikasini olish uchun ulash sxemasi qo‘zg‘aluvchan elementi ferromagnit element bo‘lgan elektromagnit o‘zgartkich (6.1-rasm).



6.1 - rasm. Qo‘zg‘aluvchan element - ferromagnit o‘zak
1-o‘zgartkichning II - shakldagi magnit o‘tkazgichi; 2-magnit hosil qiluvchi chulg‘amning ikki seksiyasi; 3-qo‘zg‘aluvchan element; 4-bir tekis taqsimlangan o‘lchash chulg‘ami; 5-chiziqli avtotransformator.

Magnit o‘tkazgich uzunligi bo‘ylab magnit oqimining taqsimlanish xususiyatidan chiziqli siljishni o‘lchashda foydalaniladi.

Amaliy qism

Eksperimental tadqiqotlar

1. Qo‘zg‘aluvchan o‘zakli elektromagnit o‘zgartkichning konstruksiysi.

6.1-jadval

| X, sm | 1 | 3 | 5 | 7 | 9 | 11 | 13 | 15 | 17 | 19 | 21 | 23 | 25 |
|-------------------------------|---|---|---|---|---|----|----|----|----|----|----|----|----|
| $U_{\text{chizq}1}, \text{V}$ | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{\text{chizq}2}, \text{V}$ | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{\text{chizq}3}, \text{V}$ | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{\text{chizq}4}, \text{V}$ | | | | | | | | | | | | | |
| $U_{\text{chizq}n}, \text{V}$ | | | | | | | | | | | | | |

Ishni tushuntirish va metodik ko‘rsatma

Ulash sxemasini yig‘ish, uni tekshirish va o‘qituvchi kuza tuvida uni kuchlanish tarmog‘iga ulash. Chiziqli transformator yordamida maydon hosil qiluvchi tok qiymatini o‘rnatish va uni tajriba davomida o‘zgarmas holatda ushlab turish.

Kompensiyalovchi qo‘zg‘aluvchan elementni boshlang‘ich holatga o‘rnatish. Ishchi qo‘zg‘aluvchan elementni har safar 10 mm ga siljitchish.

O‘rtacha qiymat barcha qiymatlarning o‘rtalari arifmetik qiymati sifatida topiladi:

$$U_{o'rt} = \frac{U_1 + U_2 + \dots + U_n}{n} \quad (6.3)$$

bu yerda n – eksperimentlar soni ($n=10$)

ΔU ni U dan og‘ish qiymati quyidagicha topiladi: $\Delta U = U - U_{\text{chiz}}$. Jadval ma’lumotlari asosidagi nochiziqlilik darajasi qiymati foizlarda quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$\beta = \frac{\Delta U}{U_{\max} - U_{\min}} \quad (6.4)$$

Statik xarakteristika grafik ko‘rinishda quyidagi bog‘liqlik asosida tuziladi:

$$U = f(x) \quad (6.5)$$

Nazorat savollari

1. Siljish o‘zgartkichi qanday asosiy elementlardan tashkil topgan?
2. Qo‘zg‘aluvchan o‘zakka ega o‘zgartkichning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
3. O‘zgartkich statik xarakteristikasi deb nimaga aytildi?
4. O‘zgartkich statik xarakteristikasining nochiziqlilik darajasi deb nimaga aytildi va u qanday qilib grafik tarzda aniqlanishi mumkin?
5. Siljish o‘zgartkichi sezgirligini qanday qilib oshirish mumkin?
6. O‘zgartkichda qanday xatolik manbalari mavjud?
7. Differensial konstruksiyadagi o‘zgartkich P - shaklli magnit o‘tkazgichga ega o‘zgartkichdan qanday farqli jihatlarga ega?
8. O‘zgartkich qanday qiymatda o‘rta kvadratik xatolikga ega?

7 – LABORATORIYA ISHI

Kirish kromkasining doirasimon shaklli radiusini o‘lchash uchun radiusomer

Ishdan maqsad

Kirish kromkasi doirasimon shaklli radiusini o‘lchash qurilmasini va metodikasini o‘rganish, GOST 9656-82 bo‘yicha shkala bo‘lim qiymati 0,001 va 0,002 bo‘lgan radiusomerning ko‘p marta aylana oluvchi indikator golovkasi konstruksiyasini bilan tanishish va uning radiusini o‘lchashda qo‘llash.

Ishning tartibi

1. Doirasimonlik radiusini o‘lchash uchun qurilmaning

tuzilishi va ishslash prinsipi bilan tanishish.

2. Ko‘p marta aylana oluvchi indikator golovkasi texnik ma’lumotlari bilan tanishish.
3. Diafragma kirish kromkasi doirasimon shaklli radiusini o‘lchash
4. O‘lchash natijalari asosidagi ma’lumotlarni qayta ishslash va o‘lchash xatoligini aniqlash.

Doirasimonlik radiusini o‘lchash qurilmasi konstruksiyasi tuzilishini tushuntirish

7.1-rasmda qurulma konstruksiyasi tasvirlangan, 7.2-rasmda esa kirish kromkasi egrilik radiusining h kattalik (o‘lchanayotgan yuzadan sozlash etaloni cho‘qqisigacha masofa) bo‘yicha aniqlash metodikasi tasvirlangan. Radiusomer hisoblash uzeli 1 dan, diafragma 3 ni o‘lchanuvchi uchli cho‘qqisiga 45° burchak ostida bissektrisa 11 bo‘yicha joylashgan o‘lchovchi shtok 2 dan;

- O‘lchovchi shtok 2 li hisoblash uzeli 1 ni kiritish uchun uzun teshigi mavjud bazaviy prizma 4;
- Bazaviy prizma 4 ga hisoblash uzeli sheykasini mahkam qotirish uchun xizmat qiluvchi vint 5 dan;
- Vintli maxovik 6 dan;
- Bazaviy prizma 4 silindrik qismi 8 ga diafragmani qotirish uchun bazaviy prizma 4 o‘yig‘i bo‘yicha harakatlanuvchi karetka 7 dan;
- Maxovik 6 ning vintli qismini bazaviy prizma 4 ga qotirish uchun xizmat qiluvchi plastinka 9 dan iborat.

Kirish kromkasi radiusini o‘lchash metodikasi

Kirish kromkasi radiusini o‘lchash metodikasi radius R ni radiusomer yordamida o‘lchash quyidagicha amalga oshiriladi. Radiusomer avval sozlash etaloni (uchli kirish kromkasi diafragma) ga o‘rnataladi. Keyin maxovik 6 va bazaviy prizma o‘yig‘i bo‘ylab harakatlanuvchi karetka 7 yordamida sozlash etaloni bazaviy prizma 4 silindrik qismi 8 ga qotiriladi. Sozlash

etalonining to‘g‘ri burchakli cho‘qqisi o‘lchovchi shtok 2 bilan tutashganda hisoblash uzeli 1 shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich mili holati o‘rnatiladi (GOST 9686 - 82 bo‘yicha 0,001 va 0,002 mm bo‘lim qiymatli ko‘p marta aylanuvchi indikator golovkasi ishlatiladi), undan keyin hisoblash uzeli 1 ning sheykasi vint 5 yordamida qotiriladi. Sozlangan radiusomer o‘lchanayotgan diafragmaga o‘rnatiladi va hisoblash uzeli 1 shkalasi bo‘yicha p kattalik aniqlanadi.


Kattalik qiymatini bilgandan keyin diafragma teshigining kirish kromkasining egrilik (doirasimonlik) radiusi qiymati hisoblab topiladi.

7.2-rasmdan ma’lumki:


$$h = VS = AS - AV \quad (7.1)$$

$$AC = \frac{AD}{\cos 45^\circ} = AD \frac{2}{\sqrt{2}}; \quad (7.2)$$

(7.2) ning qiymatini (7.1) ga qo‘yib,



7.1-rasm. Qurilma konstruksiyasi



7.2-rasm. Kirish kromkasi egrilik radiusini h kattalik bo‘yicha aniqlash metodikasi

$$h = AB \frac{2}{\sqrt{2}} - AB = AB \left(\frac{2}{\sqrt{2}} - 1 \right) = R(\sqrt{2} - 1) \quad (7.3)$$

ni hosil qilamiz.

bu yerda R quyidagiga teng,

$$R = \frac{h}{\sqrt{2} - 1} = h(\sqrt{2} + 1) = 2.415h = Kh \quad (7.4)$$

bu yerda $K = 2.415 = \text{const}$, ya’ni ushbu radiusomer uchun doimiy qiymat.

Sinov savollari

1. Qurilma qanday elementlardan tashkil topgan?
2. Doirasimonlik radiusini o‘lchash metodikasi nimaga asoslangan?
3. Ushbu qurilmada qanday xatolik manbalari mavjud?
4. Ko‘p marta aylanuvchi indikator qanday xatolik qiymatiga ega?

8– LABORATORIYA ISHI

Kichik siljishlar uchun optoelektron o‘zgartkich

Ishdan maqsad

Kichik siljishlar uchun kovak yorug‘lik o‘zgartgich nazariyasini, qurilmasini va ishlash prinsipini o‘rganish. O‘zgartkich o‘lchash sxemasini va konstruksiyasini o‘rganish, xatolik manbalari xarakteristikasini tajribaviy aniqlash.

Ishning tartibi


1. Kichik chiziqli siljishlar optoelektron o‘zgartkichi mo‘ljallanishi bilan, ishlash prinsipi bilan, tuzilishi bilan tanishish (8.1-rasm).
2. Barcha ishlatilayotgan asboblarning texnik ma’lumotlari bilan tanishish va ularni hisobotga kiritish.
3. Kovak yorug‘lik o‘tkazgich asosidagi optoelektron o‘zgartkichni o‘rganish uchun sxema yig‘ish.
4. Optoelektron o‘zgartkich statik xarakteristikasini olish.
5. Tajriba ma’lumotlari asosidagi statik xarakteristikani tuzish va o‘zgartkich xatoligini aniqlash.

Konstruksiya sxemasi va ularash sxemasi


8.2-rasmda kovak yorug‘lik o‘tkazgich asosidagi optoelektron o‘zgartkich tasvirlangan bo‘lib, u qo‘zg‘aluvchan yorug‘lik qaytaruvchi diskga ega: 1- nurlanish manbai; 2- qo‘zg‘aluvchan disk; 3- qo‘zg‘almas kovak yorug‘lik o‘tkazgich; 4- sterjen; 5- halqasimon kovak yorug‘lik o‘tkazgich; 6,7 - chiqib turuvchi ilgichlar; 8 - prujina.

8.1-rasmda o‘lchash sxemasi tasvirlangan bo‘lib, u:

- R_{f1} va R_{f2} fotorezistorlarga va R_3 , R_4 doimiy qarshiliklarga ega ko‘priksididan;
- Elektron kuchaytirgich – EK dan;
- Raqamli voltmetr - RV dan iborat.



8.1-rasm. Kichik chiziqli siljishlar optoelektron o‘zgartkich



8.2-rasm. Kichik chiziqli siljishlar optoelektron o‘zgartkichning qurilmasi

Kovak yorug'lik o'tkazgich asosidagi kichik siljishlar optoelektron o'zgartkichida jami yorug'lik oqimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$\phi_e = \phi_{to'g'} + \phi_{tes} \quad (8.1)$$

Bu yerda $\phi_{tug} = \frac{IS}{\chi^2}$ – nur qabul qilgichga to'g'ridan-to'g'ri tushayotgan yorug'lik oqimi.

Nqq ga kovak yorug'lik kovak ichki devoridan qaytib tushayotgan yorug'lik oqimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$\phi_{tes}^{(x)} = IS \left(\frac{1}{x_0^2} - \frac{1}{x^2} \right) \int_{U_x}^{U_0} \beta^{\frac{X_n i}{D}} du \quad (8.2)$$

bu yerda I – yorug'lik kuchi; S – yorug'lik o'tkazgich ko'ndalang kesimi; x – qo'zg'aluvchan elementning siljish koordinatasi; x_0 – boshlang'ich koordinata; D – yorug'lik o'tkazgich diametri; β – yorug'lik o'tkazgich material ichki devorining nur qaytarish koeffitsiyenti; U – nurning yorug'lik o'tkazgich bo'ylab og'ish burchagi; U_0 – yorug'lik oqimi boshlang'ich chiqish burchagi; U_x – kovakli yorug'lik o'tkazgichda yorug'lik oqimining ayni bir vaqtagi tarqalish burchagi.

Sinov savollari

1. Kovak yorug'lik o'tkazgich asosidagi kichik siljishlar optoelektron o'zgartkichi qanday elementlardan tashkil topgan?
2. Qo'zg'aluvchan diskli optoelektron o'zgartkichning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
3. Nur qabul qilgichning qanday turlarini bilasiz?
4. O'zgartkichning sezgirligini qanday qilib oshirish mumkin?
5. Nur qabul qilgichda qanday xatolik manbalari mavjud?
6. Optoelektron o'zgartkichning qanday konstruksiyasi differensial deb ataladi?

9 – LABORATORIYA ISHI

Tovushning havoda tarqalish tezligini rezonans usuli bilan aniqlash

Kerakli asbob va buyumlar: Tovushning havodagi tezligini aniqlashga moslashgan qurilma, G – generatordan, T – telefondan, V – trubkadan va P – elastik porshendan iborat.

Nazariy qism:

Fazoda energiyaning davriy ravishda o'zgarib tarqalishiga to'lqin deyiladi. To'lqinlar bo'ylama va ko'ndalang bo'ladi. Mexanik ko'ndalang to'lqinlar faqat siljish qarshiligiga ega bo'lgan muhitda vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun suyuqlik va gazlarda faqat bo'ylama to'lqinlar vujudga keladi. Qattiq jismlarda esa ham ko'ndalang to'lqinlar hosil bo'lishi mumkin.

x – o'qi bo'ylab tarqalayotgan yassi to'lqin tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \alpha \cos \omega \left(t - \frac{x}{v} \right) \quad (9.1)$$

Bunda x – manbadan tekshirilayotgan nuqtagacha bo'lgan masofa, x/v – to'lqin tarqalish vaqtisi, v – tezligi, α – tebranish amplitudasi.

To'lqinning bir davri (T) ichida tarqalgan masofa λ to'lqin uzunligi deyiladi

$$\lambda = v t \quad (9.2)$$

buni tebranish chastotasi bilan bog'lasak

$$v = \lambda \nu \quad (9.3)$$

bo'ladi.

$\omega = \frac{2\pi}{T}$ va $\lambda = \nu T$ lardan foydalanib, to'lqin tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$y_1 = \text{acos} \frac{2\pi}{T} \left(t - \frac{x}{v} \right) = \text{acos} 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x}{vT} \right)$$

yoki

$$y_1 = \text{acos} 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x}{\lambda} \right), \quad (9.4)$$

Chastotalarning bir xil bir necha toqlqinlar qoshishiga interferensiyasi deyiladi.

Chastota va amplitudalari bir – biriga teng, qarama – qarshi yonalgan kongerent toqlqinlarning qoshishiga natijasida turgun toqlqin hosil boilibadi:

$$y = y_1 + y_2 = \text{acos} 2\pi \left(\frac{t}{T} + \frac{x}{\lambda} \right) + \text{acos} 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x}{\lambda} \right), \quad (9.5)$$

Kosinuslar yigindisi formulasiga asosan:

$$y = 2\text{acos} 2\pi \frac{x}{\lambda} \cos \omega t, \quad (9.6)$$

bu turgun toqlqin tenglamasidan koordinatib turibdiki, turgun toqlqinning har bir nuqtasida uchrashayotgan toqlqinlarning chastotasiga teng chastotali tebranishlar sodir boilibadi, bu tebranishlar amplitudasida A esa siljish x ga boglibi

$$A = 2\text{acos} 2\pi \frac{x}{\lambda} \quad (9.7)$$

$$2\pi \frac{x}{\lambda} = \pm n\pi \quad (n=0, 1, 2, 3, 4, 5)$$

Tenglamaning qanoatlantiruvchi nuqtalarda tebranishlar amplitudasi maksimal 20 qiymatiga erishadi. Bu nuqtalar turgun toqlqinning doqngliklari deyiladi va ularning koordinatalari quyidagiga teng:

$$x_{\text{doqng}} = \pm n \frac{\lambda}{2} \quad (9.8)$$

$$2\pi \frac{x}{\lambda} = \pm (n+1)\pi$$

Tenglikni qanoatlantiruvchi nuqtalarda amplitudasi nolga teng va bu nuqtalar turgun toqlqinlarning tugunlari deyiladi.

$$x_{\text{tug}} = \pm (n+1) \frac{\lambda}{2} \quad (9.9)$$

(9.8) va (9.9) formuladan koordinadiki, qoshshni doqngliklar orasidagi masofa, qoshshni tugunlar orasidagi masofa kabi $\lambda/2$ ga teng boilib, turgun toqlqin uzunligi deyiladi.

$$\lambda_{\text{tur}} = \frac{\lambda}{2} \quad (9.10)$$

Bizga ma'lumki, tashqi kuchning oqzgarish chastotasi sistemaning xususiy tebranish chastotasiga yaqin boolsa, tebranish amplitudasi oqzining maksimal qiymatiga erishadi. Bu hodisaga mexanik rezonans deyiladi. Rezonans hodisani akustik toqlqinlar qoshishida hosil qilish mumkin.(9.1-rasm).

Ish metodi

Generatordan telefonga chastotasi aniq boylgan tovush toqlqini yuboriladi. U trubka ichida tarqalib porshendan qayta turgun toqlqin hosil qiladi. Uning chastotasi $\omega = 2\pi / \lambda$ boilibadi.

$$v = \lambda \omega \quad (9.11)$$

9.1 – rasmda turgun toqlqinining grafigi – doqngliklar va tugunlar tasvirlangan. Tajribada biz doqngliklar orasidagi masofalarni topish yobili bilan turgun toqlqinining toqlqin uzunligini aniqlaymiz:

$$L = (2n-1) \frac{\lambda}{4}, \quad (9.12)$$

yoki

$$L_I = \frac{\lambda}{4}; \quad L_3 = \frac{3\lambda}{4}, \quad (9.13)$$

$$L = L_3 - L_I = \frac{3\lambda}{4} - \frac{\lambda}{4} = \frac{\lambda}{2} \quad (9.14)$$

$$\lambda = 2L \quad (9.15)$$

(9.11) va (9.15) formuladan tovushning tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$v=2Lv$$

(9.16)

Ishni bajarish tartibi


1. Tovush generatori elektr tarmogiga ulanadi. Tovush chastotasi va intensivligi oqituvchi tomonidan aytildi.
2. Harakatlantiruvchi porshenni surish yoqli bilan tovushning maksimal eshitiladigan nuqtalari topiladi va jadvalga yoziladi.
3. (10.14), (10.16) formulalar orqali L va v lar topiladi.
4. Hisob-kitob va natijalar jadvalga yoziladi. Tajriba har bir berilgan chastota uchun uch marta takrorlanadi.
5. Akustik rezonans hodisasini tushuntring.

9.1-jadval

| Nº | v | L_1 | L_2 | L | v | $v_{o'r}$ | Δv | $\Delta v_{o'r}$ | $\frac{\Delta v_{o'r}}{v_{o'r}} \cdot 100\%$ |
|----|-----|-------|-------|-----|-----|-----------|------------|------------------|--|
| | | | | | | | | | |

Sinov savollari

1. Tolqin tenglamasini yozing va uni xarakterlovchi fizik kattaliklarni tushuntring.
2. Kogerent tolqinlar deb qanday tolqinlarga aytildi ?
3. Turgun tolqin hosil boish jarayonini tushuntiring.
4. Erkin va majburiy tebranishlarni tushuntiring.
5. Shu ishning metodini tushuntiring.



9.1 – rasm. Turgun toqlinning grafigi – doqngliklar va tugunlar

10 - LABORATORIYA ISHI

Tovushning havoda tarqalish tezligini turg'un to'lqin usuli bilan aniqlash

Kerakli asbob va anjomlar: 1) qurilma, 2) tovush generatori, 3) eshitish trubkasi.

Tebranishlarning elastik muhitda tarqalish jarayoniga mexanik to'lqin deyiladi.

Ixtiyoriy bir vaqt momentida tebranishlar shu muhitning biror (yuzasi) sirtiga bir vaqtida yetib boradi. Bu sirt to'lqin sirti yoki to'lqin fronti deyiladi. Bu sirdagi muhit zarrachalari bir xil fazada tebranadi.

Agar to'lqin fronti sferadan iborat bo'lsa, sferik to'lqin deyiladi, yassi sirt-tekislikdan iborat bo'lsa, yassi to'lqin deyiladi.

Agar muhit zarrachalarining tebranishi to'lqin tarqalish yo'nalishiga perpendikular bo'lsa, bunday to'lqin ko'ndalang to'lqin deyiladi. Bunga torli asboblarning torlarining tebranishi misol bo'la oladi.

Agar muhit zarrachalarining tebranish yo'nalishi to'lqin tarqalish yo'nalishi bilan bir oq bo'yicha bo'lsa, bunday to'lqin bo'ylama to'lqin deyiladi.

Tovush to'lqini yoki tovush chastotalari $17 \div 20 \cdot 10^3$ GS bu oralig'ida bo'lgan bo'ylama mexanik to'lqindir.

Tovush manbai yassi, bitta v-chastotada tovush to'lqinini qonuniyat bo'yicha tarqatsin.

$$y = A \sin \omega t \text{ yoki } y = A \sin 2\pi \nu t \quad (10.1)$$

Bu yerda y -tovush manbai sirtidagi zarrachalarning muvozanat vaziyatidan siljishi, A -shu siljishning maksimal qiymati yoki amplitudasi, $\omega = 2\pi\nu$ -tebranishlarning siklik chastotasi.

Tovush manbaidan v -tezlik bilan tarqalayotgan tovush to'lqini undan x masofaga $\tau = \frac{x}{g}$ vaqtidan keyin yetib boradi. U holda, shu

nuqtadan tebranishlarning siljishi $t + \tau$ momentiga to'g'ri kelib, τ vaqt kechikib tebranadi va muhit nuqtasining muvozanat vaziyatidan siljishi $y_1 = A_1 \sin \omega(t - \tau)$ yoki

$$y = A_1 \sin \omega \left(t - \frac{x}{g} \right) \quad (10.2)$$

ga teng bo'ladi. Bu tenglama monoxromatik, yani bitta chastotali (bitta to'lqin uzunligidagi) yuguruvchi to'lqin tenglamasıdır. Bu tenglama manbadan ixtiyoriy x masofadagi zarra tebranishlarning muvozanat vaziyatidan siljishini aniqlashga imkon beradi.

Agar to'lqin tarqalishida energiya yo'qolishi bo'lmasa, u holda tebranish amplitudalari A q A_1 , ya'ni bir xil bo'ladi.

Endi tovush manbaidan x_a va x_b masofadagi nuqtalarning tebranishlarini ko'raylik. Bu nuqtalardagi tebranishlarning qonuniyatlarini

$$y_a = A_1 \sin \omega \left(t - \frac{x_a}{g} \right) \text{ va } y_b = A_1 \sin \omega \left(t - \frac{x_b}{g} \right) \quad (10.3)$$

ko'rinishda yozish mumkin.

Berilgan vaqt momentidagi bu nuqtalardan tebranish fazalari

$$\varphi_a = \omega \left(t - \frac{x_a}{g} \right) \text{ va } \varphi_b = \omega \left(t - \frac{x_b}{g} \right) \quad (10.4)$$

ga teng bo'ladi. Agar bu nuqtalardagi tebranishlar bir xil fazada bo'lsa,

$$\Delta\varphi = \varphi_a - \varphi_b = 2\pi n \quad (10.5)$$

ga teng bo'ladi. Bu yerda n q $0, 1, 2, 3, \dots$ butun sonlar. Ikkita eng yaqin masofadan bir xil tebranishlar uchun

$$\Delta\varphi = 2\pi \quad (10.6)$$

Ya'ni nol ga teng bo'ladi. U holda $\omega \left(t - \frac{x_a}{g} \right) - \omega \left(t - \frac{x_b}{g} \right) = 2\pi$ ga tengligidan munosabat kelib chiqadi.

$$x_b - x_a = \frac{2\pi \vartheta}{\omega} \quad (10.7)$$

Bir xil fazada tebranayotgan ikkita teng yaqin nuqtalar orasidagi masofa to'lqin uzunligiga teng bo'lgani uchun $\frac{2\pi \vartheta}{\omega} = \lambda$ ga teng bo'ladi.

Bundan

$$\lambda = \frac{\vartheta}{v} \text{ yoki } \lambda = \vartheta \cdot T \quad (10.8)$$

ifodalar kelib chiqadi. Demak, bir to'la tebranish vaqtiga - tebranish davrida to'lqinning bosib o'tgan yo'li ham to'lqin uzunligi deyilar ekan.

Endi tovush to'lqinning biror to'siqdan qaytib, birlamchi yo'nalishdagi to'lqin bilan uchrashishi natijasida hosil bo'ladigan natijaviy to'lqin xususiyatlarini ko'raylik.

Birlamchi to'lqinning x nuqtadagi tebranishlari

$$y_1 = A \sin \omega \left(t - \frac{x}{\vartheta} \right) \quad (10.9)$$

ko'rinishda bo'lsin.

Tebranish manbaidan l masofadagi to'siqdan qaytgan tebranishlar tenglamasi esa

$$y_2 = A \sin \omega \left(t + \frac{2l-x}{\vartheta} \right) \quad (10.10)$$

ko'rinishda bo'ladi, chunki ikkinchi to'lqin yurgan yo'l 2l - x ga teng.

Bu ikkita to'lqin tebranishlarining qo'shilishi natijasidagi to'lqin $y = y_1 + y_2 = 2A \cos \frac{l\omega}{\vartheta} \sin \omega \left(t - \frac{x-l}{\vartheta} \right)$ yoki $\omega = \frac{2\pi}{T}$ bo'lgani uchun


$$y = 2A \cos \frac{2\pi l}{\lambda} \sin 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x-l}{\lambda} \right) \quad (10.11)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu tenglama amplitudasi $2A \cos \frac{\omega l}{v}$ bo'lgan turg'un to'lqin tenglamasidir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, bu

tenglamadan $\varphi = 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x-l}{\lambda} \right) = n\pi$ da yoki $l = \frac{\lambda n}{2}$ nuqtalarda tebranish amplitudasi nolga teng bo'ladi. Bu tebranish amplitudasi nolga teng bo'lib qoladigan nuqtalarga turg'un to'lqinning tugunlari deyiladi.

Tebranish amplitudalari eng katta qiymatga ega bo'lgan nuqtalar do'ngliklar deyiladi. Ikki qo'shni tugunlar yoki do'ngliklar orasidagi masofa turg'un to'lqin uzunligi deyiladi va u tovush to'lqini uzunligining yarmiga teng, yani

$$\lambda_T = \frac{\lambda}{2} \quad (10.12)$$



10.1-rasm. Tovushning bir xil tebranish grafigi

Tajribada ikkita qo'shni tugunlar yoki do'ngliklar orasidagi masofa

$$\Delta l = \frac{1}{2}(n+1) - \frac{\lambda}{2} n = \frac{\lambda}{2} \quad (10.13)$$

aniqlanadi va λ ni bilgan holda (11.8) dan tovush to'lqining tezligi


$$\vartheta = \lambda \cdot v \quad (10.14)$$

aniqlanadi. Bunda tebranish chastotasi v -tovush generatoridan tanlangan chastota qiymatidir. Odatda u 1-5 kGts atrofida tanlanadi.

EKSPERIMENTAL QURILMA TAVSIFNOMASI

Qurilmaning asosi ichki diametri 3-6 sm bo'lgan va uzunligi 0,8-1,2 m bo'lgan metall (tovush yutmaydigan boshqa materiallar, masalan plastmassa) nay tashkil qiladi. Nayning bir tomoniga tovush manbai (telefon.tm) o'rnatilgan. Nayning

ikkinchisi tomoniga metall porshen erkin siljiydigan qilib o'rnatilgan. Nay yuqori tomonidan tirqish shaklida kesilgan bo'lib, unda TT-tovush trubkasi erkin siljiy oladigan qilib o'rnatilgan



10.2-rasm. Tovush trubkasi

Tovush to'lqinining amplitudasi va chastotasi tovush manbaiga ulangan tovush generatori (G3-53 yoki G3-110) yordamida tanlanadi. Tovush generatori diskini dastagini burab limba to'g'risidagi chastota qiymati tanlanadi. Tovush amplitudasi tovush trubkasi orqali tovush sezilarli darajada bo'lishi "amplituda" dastagi yordamida tanlanadi.


Tovush tovush manbai TM dan chiqib, porshendan qaytadi va nayda tovushning turg'un to'lqini vujudga keladi. TT-tovush trubkasining vaziyati nay kesigida mahkamlangan lineyka yordamida aniqlanadi. Agar TM dan yoki porshendan tovush trubkasiga bo'lgan masofa

$$l = n \frac{1}{2} = 2\pi \frac{\lambda}{4} \quad (10.15)$$

teng bo'lsa, tovush trubkasining vaziyatlari tugunlarga to'g'ri keladi va tovush deyarli eshitilmaydi. Agar bu masofa

$$l = (2n+1) \frac{\lambda}{4} \quad (10.16)$$

ga to'g'ri kelsa, bu holda TT-tovush trubkasining vaziyati do'ngliklarga to'g'ri keladi va tovush balandligi maksimal bo'ladi.



10.3-rasm. a) TT-tovush trubkasining vaziyati do'ngliklarga to'g'ri keladi, b) tovush balandligi maksimal bo'ladi

Ishni bajarish tartibi

1. Tovush generatori tok manbaiga ulanib, yoqiladi. Chastota o'zgartirgich dastasi yoki klavishi yordamida ma'lum tovush chastotasi ($1 \div 5 \text{ kGts}$) tanlanadi.

2. TT-tovush trubkasini porshenga yaqin joyga olib borib, so'ngra lineyka shkalasiga qarab uni porshendan asta-sekin uzoqlashdirsa borib, tovushning maksimumiga to'g'ri kelgan l_i vaziyatlar yozib olinadi. Surgichni orqaga qaytar sahifani o'shish maksimumiga to'g'ri kelgan TT ning vaziyatlari l'_i qayta aniqlanib yozib olinadi. Tovushning bir xil maksimumga to'g'ri kelgan vaziyatlar uchun l_i ning o'rtacha qiymati

$$\bar{l}_i = \frac{l_i + l'_i}{2} \quad (10.17)$$

topiladi.

3. Yaqin ikki qo'shni tovush maksimumi vaziyatlari orasidagi masofa aniqlanadi.

4. Topilgan $(\bar{l}_i - \bar{l}_{i-1})$ ning qiymatlari izlanayotgan tovush to'lqinining yarmiga tengligidan foydalanib, tovush to'lqin uzunligi va chastotasi topiladi hamda 10.1 - jadvalga yoziladi.

10.1-jadval

| v _i | max tartibi | TT ning vaziyati | | \bar{l}_i | $\bar{l}_i - \bar{l}_{i-1}$ | λ_i | v _i | $\bar{\lambda}$ | \bar{v} | Δv | $\varepsilon, \%$ |
|----------------|-------------|------------------|--|-------------|-----------------------------|-------------|----------------|-----------------|-----------|------------|-------------------|
| | | | | | | | | | | | |
| v ₁ | 1 | | | | | | | | | | |
| | 2 | | | | | | | | | | |
| | ... | | | | | | | | | | |
| v ₂ | 1 | | | | | | | | | | |
| | 2 | | | | | | | | | | |
| | ... | | | | | | | | | | |

6. Xuddi shunday o'lhashlar tovush chastotasining yana 2-3 qiymatlari uchun bajariladi va olingan natijalar hisobot jadvaliga yozilib, hisoblashlar bajariladi.

TOVUSH TO'LQIN UZUNLIGI VA TEZLIGINING KICHIK KVADRATIK XATOLIGINI HISOBBLASH

To'lqin uzunligining o'rtacha kvadrati xatoligi

$$\Delta \lambda_j = t_\alpha(n) \sqrt{\frac{\sum (\Delta \lambda_i)^2}{n(n-1)}} \quad (10.18)$$

formula asosida hisoblanadi. Bu yerda $j=1,2,3, \dots$ - har xil chastotadagi o'lhashlar tartibi, $t_\alpha(n)$ - Student koeffitsiyenti, n o'lhashlar-maksimumlar soni.

Berilgan j dagi chastota uchun tezligining absolyut xatoligi

$$\Delta g_j = \left(\frac{\Delta \lambda_j}{\bar{\lambda}_j} + \frac{\Delta v_j}{v_j} \right) g_j \quad (10.19)$$

formula bo'yicha hisoblanadi. Bu yerda Δv_j - chastotani generatordan olishdagi xatolik.

Xuddi shu kabi $j = 2, j = 3$ (v_2 va v_3) hollar uchun $\Delta \lambda_i$ va Δv_j aniqlanadi. Bu qiyatlardan Δv ning o'rtacha qiymati aniqlanadi va natija $g = g \pm \Delta g$ ko'rinishga keltiriladi.

Nazorat savollari

1. To'lqin deb nimaga aytildi?
2. To'lqin fronti nima?
3. Ko'ndalang va bo'ylama to'lqin deb nimaga aytildi?
4. To'lqin uzunligi deb nimaga aytildi?
5. Yuguruvchi yassi to'lqin nima?
6. To'lqin fazasi nimani anglatadi?
7. Turg'un to'lqin deb nimaga aytildi?
8. To'lqin uzunligi bilan chastotasi orasidagi munosabatni keltiring.
9. Tovush tezligi muhitning qanday parametrlariga bog'liq?

11- LABORATORIYA ISHI

Tovushning havodagi tarqalish tezligini interferensiya usuli bilan aniqlash

Tutash elastik muhitlarda (gaz, suyuqlik va qattiq jism) zarrachalarning tebranishi boshqa qator muhit zarrachalarining tebranishiga olib keladi. Sababi, muhit zarrachalari orasida o'zar tortishish va itarilish kuchlari mavjud. Tutash muhitda (masalan havoda) tebranishlar vaqt bo'yicha barcha yo'nalishda tarqaladi. Bu jarayon mexanik to'lqin deyiladi.

Avvalgi 10-laboratoriya ishida to'lqinlarning umumiy xossalari batafsil berilgan edi. Tovush ham bo'ylama mexanik to'lqin bo'lgani uchun uning tarqalishini yuguruvchi yassi to'lqin tenglamasi orqali tavsiflagan edik, ya'ni manbadan X masofadagi zarralarning tebranish tenglamasini

$$Y(x,t) = A \sin(\omega t + \alpha - \omega t) \quad (11.1)$$

ko'rinishda yozish mumkin edi. Bu yerda A-tebranish amplitudasi, ω -siklik chastota, α -tebranishlarning boshlang'ich fazasi (ko'pincha soddalik uchun $\alpha \neq 0$ deb olinar edi), $\tau = \frac{x}{v}$ - maydonidan tarqalayotgan tovushini X masofaga kechikib yetib borish vaqt, $\tau = t - \frac{x}{v}$ - tovush to'lqinining tezligi.

Yassi monoxromatik (bitta chastotali) tovush to'lqinining tenglamasini

$$y = A \sin \left[\omega \left(t - \frac{x}{\lambda} \right) + \alpha \right] = A \sin \left[\frac{2\pi}{T} \left(t - \frac{x}{\lambda} + \alpha \right) \right] \quad (11.2)$$

shaklida ham ifodalash mumkin. Bu yerda

$$\omega = 2\pi v = \frac{2\pi}{T} \quad (11.3)$$

va

$$\lambda = \lambda \cdot T = \frac{\lambda}{v} \quad (11.4)$$

munosabatlarni yodda tutgan holda tovush to'lqini uzunligi tebranish chastotasi va uning tarqalish tezliklari orasidagi munosabatlarni ifodalash mumkin:

$$\lambda = \frac{\lambda}{T} = \lambda \cdot v \quad (11.5)$$

Demak, berilgan chastotadagi tovush to'lqini uzunligini amalda aniqlab, uning tezligini topish mumkin ekan. Havoda va boshqa elastik muhitlarda juda katta chastota diapazonida elastik to'lqinlar hosil bo'ladi. Lekin biz 17 Gs dan 20 kGs gacha bo'lgan to'lqinlar – tovushlarni eshitamiz. Chastotasi 17 Gs dan kichik bo'lgan infratovushlarni, 20 kGs dan katta bo'lgan ultratovushlarni inson eshitma olmaydi. Inson 2 kGs dan 5 kGs gacha chastotalar intervalidagi tovush to'lqinlarini yaxshi eshitadi. Shu sababli tajriba shu chastotalardagi yassi yuguruvchi tovush to'lqinlarining interferensiyasidan foydalanamiz.

Ikkita chastotalari (to'lqin uzunliklari) bir xil va fazalar farqi vaqt bo'yicha o'zgarmaydigan to'lqinlar – kogerent to'lqinlarning bir-biri bilan uchrashib kuchayishi yoki susayishiga interferensiya deyiladi.

Faraz qilaylik, bitta to'lqin manbadan uchrashish nuqtasiga yetib borguncha x_1 masofani bosib o'tsin. Uning bu nuqtadagi to'lqin tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$y_1 = A_1 \sin \left[\omega \left(t - \frac{x_1}{\lambda} \right) + \alpha \right] \quad (11.6)$$

Ikkinci to'lqin esa x_2 masofani bosib o'tsin. U holda uning to'lqin tenglamasi

$$y_2 = A_2 \sin \left[\omega \left(t - \frac{x_2}{\lambda} \right) + \alpha \right] \quad (11.7)$$

ko'rinishda bo'ladi. Soddalik uchun boshlangich faza $\alpha=0$ va tovush energiyasi shu tarqalish sohasida yo'qolmaydi deb faraz qilamiz, ya'ni $A_1=A_2=A$. U holda $\omega = \frac{2\pi}{T}$ va $\lambda \cdot T = \lambda$ ekanligini hisobga olib, (11.6) va (11.7) tenglamalarni quyidagi ko'rinishlarda yozamiz.

$$\left. \begin{aligned} y_1 &= A \sin 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x_1}{\lambda} \right) \\ y_2 &= A \sin 2\pi \left(\frac{t}{T} - \frac{x_2}{\lambda} \right) \end{aligned} \right\}$$

Monoxromatik tovush to'lqinlari qo'shilib bir-birini qoplagan (qamragan) sohada tebranishlar ustma-ust tushadi, interferensiya ro'y beradi. Natijada ba'zi joylarda tebranish kuchayadi, ba'zi joylarda esa susayadi. Shu nuqtaga yetib kelgan ikkita bir xil chastotali tebranishlarning yigindisidan iborat, ya'ni

$$y = y_1 + y_2 + A_n \sin(\omega t + \phi) \quad (11.9)$$

Uning natijaviy amplitudasi umumiy holda

$$A_h = \sqrt{A_1^2 + A_2^2 + 2A_1 A_2 \cos(\phi_2 - \phi_1)} \quad (11.10)$$

ga teng. Ko'rileyotgan nuqtaga yetib kelgan tovush tebranishlarining fazalar farqi esa (8) tenglamadan

$$\Delta\phi = \phi_2 - \phi_1 = 2\pi \frac{x_2 - x_1}{\lambda} = 2\pi \frac{d}{\lambda} \quad (11.11)$$

ga teng bo'ldi. Bu yerda qo'shiluvchi tovush to'lqinlarining fazalar farqi $\Delta\phi=2n\pi$ (n-butun sonlar) bo'lsa, yo'llar farqi $d=x_2-x_1=n\lambda$ (11.12) butun to'lqin uzunliklariga teng bo'lsa, natijaviy tebranish maksimumga erishadi. Agar qo'shiluvchi tovush to'lqinlarining fazalar farqi $\Delta\phi=(2n+1)\pi$ bo'lsa, u holda yo'llar farqi

$$d = x_2 - x_1 = (2n + 1) \frac{\lambda}{2}, \quad (11.13)$$

ya'ni, toq yarim to'lqin uzunliklariga teng bo'lsa, natijaviy tebranishlar minimum bo'ldi. Bu yerda $n=0,1,2,3 \dots$ butun sonlar ekanligini yodda tutish lozim.


Shunday qilib, tovush to'lqinining (har qanday to'lqinning) interferensiysi ularning amplitudasi va bir xil bo'lgan chastota qiymatiga bog'liq bo'lmay, faqat to'lqinlarning manbadan ularning uchrashish nuqtasiga bo'lgan yo'llar farqiga bog'liq ekan. Ana shu tamoyildan foydalanilgan holda, mazkur ishda to'lqinning interferensiyasini hosil qilib, undan uning havoda tarqalish tezligini aniqlaymiz.

USULNING NAZARIYASI VA EKSPERIMENTAL QURILMA

Tovush to'lqinining havoda tarqalish tezligini aniqlash uchun uning chastotasi va to'lqin uzunligini bilishimiz kerak. Bu usulda tovush chastotasi tovush generatorining tanlangan shkalasidan olinadi. To'lqin uzunligi esa interferensiya usuli bilan, ya'ni interferensiyalovchi to'lqinlarning yo'llar farqidan aniqlanadi. Tovush tebranishlarining manbai sifatida tovush generatoriga ulangan telefon naushnigi qo'llaniladi. U tovush chastotasidagi elektr tebranishlarni mexanik tebranishlarga, ya'ni tovushga aylantirib beradi. Tovush tebranishlari rezina nay orqali kvinke asbobiga yuboriladi. Asbobning sxematik ko'rinishi 11.1-rasmda ko'rsatilgan.

Kvinke asbobi birining ichiga ikkinchisi kiradigan ikkita U simon naydan iborat. Ulardan biri harakatsiz bo'lib, asbob

korpusiga mahkamlangan. Ikkinchisi esa deyarli ishqalanishsiz uning ichiga 20-30 sm kiradi. Uning harakati K dastak yordamida amalga oshiriladi va vaziyati asbob korpusiga mahkamlangan lineyka shkalasidan aniqlanadi. Telefon naushnigi tovush manbaning (M) o'lchami naylarning diametridan katta bo'lgani uchun yassi tovush to'lqini hosil qilinadi va u nayning A nuqtasiga uzatiladi. Bu nuqtada tovush to'lqini ikkiga ajraladi. Bir qismi o'ng tomonga birinchi nay orqali, ikkinchi qismi chap tomoniga harakat qilib, ikkinchi nay orqali B nuqtaga yetib keladi. Bu nuqta to'g'risiga B naycha ulangan bo'lib, unga TT-tovush trubkasi rezina nay orqali ulangan. Bu trubka yordamida 2 ta B nuqtada qo'shilayotgan tovush to'lqinlarining intensivligi kuzatiladi. Qo'shiluvchi ikkala tovush to'lqini bitta manbadan chiqqanligi uchun ular kogerentdir.



11.1-rasm. Tovush trubkasi rezina nay orqali ulangan

Demak, B nuqta yoki B naychaga yetib kelgan kogerent tovush to'lqinlarining yurgan yo'llarining farqiga qarab, TT-tovush trubkasida maksimum yoki minimum-past tovush eshitiladi. K dastak yordamida ikkinchi U simon naychani birinchi naychaga kirita borganda, to'lqinlarning yo'llar farqi juft yarim to'lqin uzunligiga to'g'ri kelsa, TT-tovush trubkasida maksimum tovush eshitiladi. Agar yo'llar farqi toq yarim to'lqin uzunligiga tenglashtirilsa, past tovush eshitiladi. Birinchi maksimum va

ikkinchit maksimum tovush eshitiladigan vaziyatlar orasidagi masofa M shkaladan aniqlanadi va bu yo'llar farqi $\Delta d = d_2 - d_1 = \lambda$ ga teng bo'ladi. Sababi, birinchi holda to'lqinlarning yo'llar farqi $d_1 = n\lambda$ (maksimum sharti), ikkinchi holda $d_2 = (n+1)\lambda$ ga teng bo'ladi. Ikkinchini tomondan K dastak l masofaga siljiydi. Yo'llar farqi $2l$ ga teng bo'lgani uchun $d_2 - d_1 = 2l = \lambda$ bo'ladi. Bundan $\lambda = 2l$ ga teng ekan. Tovush generatorida tanlangan v chastota va l ning qiymatini bilgan holda tovush to'lqinining havodagi tezligi quyidagi ifoda bo'yicha topiladi:

$$\vartheta = \lambda \cdot v = 2l \cdot v \quad (11.14)$$

TAJRIBANI O'TKAZISH VA HISOBBLASHLAR

1. Tovush generatori tarmoqqa ulanadi va undan olinadigan tovush tebranishlarining chastotasi tanlanadi (odatda 2000-2500 Gs).

2. Tovush trubkasi TT ni qulopqa tutib, tovush generatorining amplituda qulog'ini burab, sistemada yetarli darajada amplitudali tovush to'lqin hosil qilinadi.

3. Qo'zg'aluvchi ikkinchi nayni K dastak bilan birinchi nayga mumkin bo'lgan qadar kiritiladi va tovush trubkasi TT dan tovush maksimum (yoki minimal) bo'lguncha orqaga siljiltiladi. K dastak vaziyati l/M shkaladan yozib olinadi.

4. K dastak yordamida qo'zg'aluvchan nayni orqaga siljata borib, navbatdagi maksimum (minimum) tovush eshitiladigan l' vaziyatlar yozib olinadi.

5. K dastak yordamida qo'zg'aluvchan nayni oldinga siljiti, M shkaladan shu tajriba o'tkazilayotgan v chastotasi uchun mos keluvchi tovush maksimum (minimum) bo'lgan l'' vaziyatlar qaytadan aniqlanadi va yozib olinadi. Natijalar hisobot jadvaliga yoziladi.

HISOBOT JADVALI

11.1-jadval

| v_n | max (min) tartib bi | l'_i | l''_i | $\bar{l}_i = \frac{l'_i + l''_i}{2}$ | $l_i \Delta d_i$ | λ_n | ϑ_n | $\langle \vartheta \rangle$ | $\langle \Delta \vartheta \rangle$ | $\varepsilon = \frac{\Delta \bar{\vartheta}}{\bar{\vartheta}} \cdot 100\%$ |
|-------|------------------------------|--------|---------|--------------------------------------|------------------|-------------|---------------|-----------------------------|------------------------------------|--|
| v_1 | 1 | | | | | | | | | |
| | 2 | | | | | | | | | |
| v_2 | 1 | | | | | | | | | |
| | ... | | | | | | | | | |

6. O'lhashlar kamida ya'ni 3 ta chastota uchun bajariladi va natijalar hisobot jadvaliga yoziladi.

7. Har bir $v_n (n=1,2,3\dots)$ chastotalar uchun tovush to'lqini λ_n va tezligi ϑ_n ning qiymatlari hamda o'rta qiymatlari aniqlanadi.

8. Tovush to'lqini tezligining o'rtacha qiymati $\langle \vartheta \rangle$ va uning absolyut xatoligining o'rtacha qiymati $\langle \Delta \vartheta \rangle$ aniqlanadi va hisobot jadvaliga yoziladi.

9. Tovush tezligini aniqlashning nisbiy kattaligi $\varepsilon = \frac{\Delta \bar{\vartheta}}{\bar{\vartheta}} \cdot 100\%$ topiladi.

10. Tajriba natijasi $\vartheta = \bar{\vartheta} + \Delta \bar{\vartheta}$ ko'rinishda keltiriladi.

Nazorat savollari

- Yassi to'lqin deb nimaga aytildi?
- Kogerent to'lqin deb nimaga aytildi? U qanday hosil qilinadi?
- Kvinke asbobida hosil qilingan to'lqin qanday (bo'ylama ko'ndalang yoki sferik) to'lqin?
- To'lqin interferensiysi deb nimaga aytildi? Unda maksimum va minimum bo'lish shartini tushuntiring?
- Ikkita kogerent to'lqin qo'shilib minimum hosil qilingan hol uchun energiya saqlanish qonunini tushuntiring?
- Tovush amplitudasi, intensivligi, energiyasi kattaliklarini tavsiflang.
- Tovush qattiq jismlarda qanday tarqaladi?

- Nima uchun tovushning havodagi tarqalish tezligi uning temperaturasiga bog'liq?
- Tovush tezligining aniqlashning qanday usullarini bilasiz?

12- LABORATORIYA ISHI

Matematik mayatnikning tebranish davri, chastotasini va uning yordamida jismning erkin tushish tezlanishini aniqlash

Nazariy qism

Ma'lumki, tebranishlar – bu biror vaqt oraliqida aniq yoki taxminan takrorlanadigan harakatlardir. Muvozanat vaziyatidan chiqarilgan sistemaga davriy ravishda kuch ta'sir etishi mumkin. Tebranishlarni xarakterlovchi kattaliklar bilan tanishib chiqamiz.

Bunday kattaliklardan biri siljishdir. Siljishlar deb, tebranayotgan jismning muvozanat vaziyatidan OX o'q bo'yicha ko'chish proeksiyasiga aytildi. Siljish skalyar kattaliklardir. Tebranayotgan jismning siljishi uzluksiz o'zgarib boradi. Siljishning eng katta qiymati amplitudaviy siljish yoki amplitudasi deyiladi. Demak, tebranayotgan jismning muvozanat vaziyatidan eng katta masofaga siljishi **tebranish amplitudasi** deb ataladi. Amplituda X_M harfi bilan belgilanadi.

Nuqtaning bir marta to'la tebranishi uchun ketgan vaqt **tebranish davri** deb ataladi va T harfi bilan belgilanadi. Agar nuqta t vaqt ichida n marta tebransa, u holda tebranish davri

$$T = \frac{t}{n}, \quad (12.1)$$

formula bilan ifodalanadi. O'chov birligi – sekund.

Jismning vaqt birligi ichidagi to'la tebranishlar soni **tebranish chastotasi** deyiladi va v harfi bilan belgilanadi. Agar nuqta t c ichida n marta tebransa, u holda tebranish chastotasi

$$v = \frac{n}{t}, \quad (12.2)$$

chastota birligi qilib 1 c da yuz bergen bitta tebranish qabul qilingan. Bu birlik **gers (Gs)** deb ataladi. Amaliy masalalarni yechishda karrali birliklar qo'llaniladi: kilogers (KGs), megogers (MGs), gegogers (GGs).


$$1\text{KGs} = 1000 \text{Gs}, \quad 1\text{MGs} = 10^6 \text{Gs}, \quad 1\text{GGs} = 10^9 \text{Gs}.$$

Juda sodda matematik o'zgartirishlardan so'ng (12.1) va (12.2) ifodalardan quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$T = \frac{1}{v}, \quad (12.3)$$

Ya'ni tebranish davri chastotaga teskari proporsionaldir.

Og'irligi juda kichik bo'lgan hamda chozilmaydigan ipga osilgan moddiy nuqta matematik mayatnik deb ataladi. Agar kichkina sharcha olib uni ingichka ipga osib qo'ysak matematik mayatnik hosil bo'ladi (12.1- rasm). Matematik mayatnik qonunlarini G. Galiley, I. Nyuton yaxshi o'rganib, o'zlarining asosiy xulosalarini chiqargan



12.1 – rasm Matematik mayatnik hosil bo'lgan tasviri

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, matematik mayatnikning tebranish davri uning massasiga va amplitudasiga bog'liq bo'lmasdan, faqat uzunligiga bog'liq bo'ladi. Matematik mayatnik uzunligining ortishi bilan uning tebranish davri ortadi,

yoki aksincha matematik mayatnikning tebranish davri quyidagi formuladan topiladi:

$$T=2\pi\sqrt{\frac{e}{g}}, \quad (12.4)$$

bunda e – mayatnik uzunligi; g – erkin tushish tezlanishi.
(4) formuladan erkin tushish tezlanishini topamiz:

$$g=\frac{4\pi^2 e}{T^2}, \quad (12.5)$$

matematik mayatnikning tebranish chastotasi $T = 1/v$ bolganligidan quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$v=\frac{1}{2\pi}\sqrt{\frac{g}{e}} \quad (12.6)$$

Agar prujinaga yuk osib uni muvozanat vaziyatidan chiqarib qo'yib yuborsak, u shu yonalishda tebrana boshlaydi. Hosil bolgan tebranish sistemasi prujinali mayatnik deb ataladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, uning tebranish davri tebranish amplitudasiga bog'liq bo'lmasdan, faqat yukning massasiga bog'liq bo'ladi. Yukning massasi ortishi bilan tebranish davri ortadi, aksincha mayatnikning chastotasi kamayadi. Bunda prujinaning elastikligi (bikrligi) muhim bo'lib, uning ortishi bilan prujinali mayatnikning tebranish davri kamayadi. Yuqoridagi fikr – mulohazalarimiz quyidagi ifodada o'z isbotini topadi, ya'ni

$$T=2\pi\sqrt{\frac{m}{k}}, \quad (12.7)$$

bunda m – yukning massasi; k – elastiklik koefitsiyenti.

Ishga kerakli jihozlar:

1. Matematik mayatnik;
2. O'lchash lentasi;
3. Vaqt o'lchagich;
4. Shtativ;

Ishni bajarish tartibi.

1. Matematik mayatnik stol ustida vertikal holda o'rnatiladi.
2. Matematik mayatnikni uzunligi o'lchab olinadi.
3. U og'irlik markazidan 5–8 gradusga og'dirilib, qo'yib yuboriladi.
4. Matematik mayatnikni $N = 10, 15, 18$ va 20 marta tebranishi uchun ketgan vaqtini o'lchab olinadi.
5. Matematik mayatnikning tebranish davri va chastotasi quyidagi formulalardan topiladi:

$$T=\frac{t}{N}, \quad v=\frac{1}{T}, \quad (12.8)$$

Bundan t – tebranish vaqt; N – tebranishlar soni.

6. O'lchash va hisoblashlarning natijalari quyidagi jadvalga to'ldiriladi:

12.1-jadval

| $\#$ | e, M | t_i, c | N_i | T_i, c | $v i, c^{-1}$ | $gi, m/c$ | $g_{o'ret}$ | δ_i | $\delta_{o'ret}$ |
|------|--------|----------|-------|----------|---------------|-----------|-------------|------------|------------------|
| 1 | | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | | |
| 4 | | | | | | | | | |

7. Tajriba 4 marta takrorlanadi.
8. Erkin tushish tezlanishi (5) formuladan topiladi;
9. O'lchash va hisoblashlarning xatoliklari quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$g_{o'rt} = \frac{g_1 + g_2 + \dots + g_n}{n}, \quad \delta_i = \frac{g_{o'rt} - g_i}{g_{o'rt}},$$

$$\delta_{o'rt} = \frac{\delta_{i1} + \delta_{i2} + \dots + \delta_{in}}{n} \quad (12.9)$$

13- LABORATORIYA ISHI

Chiqishda II-shaklidagi signallarni beruvchi elektroakustik tebranishlar generatorining principial sxemasini o'rganish va xarakteristikasini olish

Nazariy qism

Ma'lumki, tebranish davriy ravishda yuz beradigan jarayondir. Shunday jarayonlardan biri bo'lgan akustik tebranishlarni ko'rib chiqamiz. Agar biz kamertonga temir plastina bilan ta'sir qilsak, uni shoxchalari tebranib atrofga tovush tebranishlarini tarqata boshlaydi. Tovush tebranishlari havo zarralarini tebratadi, ya'ni o'z energiyasini uzatadi. Natijada havoda tovush toqlinlari hosil bo'ladi. Tovush tebranishlarini quyidagi asosiy xarakteristikalar mavjud:

Tovush tezligi – bu toqlinlarning elastik muhitdagi tezligidir. Tovush tezligi m/s larda o'lchanadi.

Tovush bosimi – bu ma'lum yuzaga berilgan tovushning bosim kuchidir. Paskallarda o'lchanadi, Pa.

Tovush energiyasi – bu elastik muhitni tashkil etuvchi zarralarning energiyasidir (W). Energiya joullarda o'lchanadi, J.

Tovush intensivligi – bu ma'lum yuzaga toqg'ri kelgan tovush energiyasidir. O'lchov birligi, Vt/m².

Bu kattaliklar muhitning mexanik va fizikaviy – kimyoviy xossalariiga bog'liq bo'ladi. Akustik tebranishlar fan va texnikaning turli sohalarida keng ishlataladi. Hatto qurilish inshootlari ham ma'lum akustik standart talablarga javob berishi talab etiladi. Tovush tebranishlarining davri (T), chastotasi (Sh) quyidagi formulalardan topiladi:

$$T = \frac{t}{n}; \quad \omega = \frac{n}{t}; \quad T = \frac{t}{\omega}; \quad (13.1)$$

bunda T - sh tebranishlar davri va chastotasi;
 n – tebranishlar soni;
 t – tebranishlar vaqt.

Tovush tebranishlarini elektr tebranishlariga aylantirish uchun tovush o'zgartikichlaridan foydalaniadi. Jumladan, mikrofon va telefon yordamida tovush tebranishlari elektr signallariga aylantiriladi. Eng ko'p tarqalgan va amaliyotda ishlataladigan o'zgartikichlar bu – elektroakustik o'zgartikichlar va generatorlardir.

Bu qurilmalarda elektr energiyasi akustik energiyaga yoki o'zgarmas tok energiyasi akustik tebranishlarga aylantiriladi.

Elektroakustik generatorlarda o'zgarmas elektr toki energiyasi hisobiga so'nmaydigan akustik tebranishlar hosil qilinadi. Bu generatorning asosiy elementi – uning tebranish konturidir. Kontur elementlari sifatida LC va RC tebranish sistemalaridan foydalaniш mumkin. Konturda hosil qilinadigan akustik tebranishlarning davri va chastotasining kontur elementlari (L, C, R) bilan bog'lanishi Tomson formulasidan aniqlanadi:

$$T = 2\pi\sqrt{LC}, \quad v(\text{нс}) = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}}, \quad (13.2)$$

bunda L – g'altak induktivligi;
 S – kondensatorning sig'imi;
 R – induktivlikka ekvivalent qarshilik.

Kontur elementlarini o'zgartirish yollli bilan turli chastotali akustik tebranishlarni hosil qilish mumkin. Elektroakustik generatorlar metrologik o'lchashlarning barcha sohalarida keng ishlataladi. Masalan, elektroakustik generatorlar elektr va magnit o'zgartikichlari uchun o'zgaruvchan tok manbai sifatida keng qo'llaniladi.

Kerakli jihozlar:


1. Pasaytiruvchi kuch transformatori;
2. Tranzistorli kuchlanish stabilizatori;
3. RC – filtr.

Ishni bajarish uchun elektroakustik generator elementlarining qisqacha xarakteristikalari

1. Pasaytiruvchi kuch transformatorining birlamchi goaltagi 220 V ozgaruvchan kuchlanishli tok bilan ta'minlanadi.

Uning ikkilamchi goaltagida elektromagnit induksiya qonuniga asosan chiqish kuchlanish hosil boladi, amplituda qiymati 12V, bunda birlamchi goaltakdagi ozramlar soni ikkilamchi goaltakdagi ozramlar sonidan bir necha marta katta, ya'ni $N_1 \gg N_2$;

2. Elektroakustik generator normal ishlashi uchun u ozgarmas stabillangan kuchlanish bilan ta'minlanadi. Bu vazifani koprik sxemasida yigilgan togrilar qarshilik va elektron stabilizator bajaradi (13-rasm).



13.1-rasm. Kuchlanish stabilizatori


Koprik sxemasi yordamida togrilangan kuchlanish elektron stabilizator bilan stabil holatga keltiriladi. Sxemada asosiy stabillovchi element D 814 A tipidagi stabilitron bolib, u 8,2 V tayanch kuchlanishni saqlab turadi. VT tranzistor chiqish kuchlanishini boshqaradi.

3. Transformatordan kelayotgan ikkilamchi garmonik ozgaruvchan kuchlanish stabilizatorga kirib qolishi mumkin. Shu garmoniklarni sondirish maqsadida sxemada RC – filtr, (S_2 , R_2) ya'ni tozalovchi element ishlataladi.

Elektroakustik generatorning ishlash prinsipiqa salbiy ta'sir etuvchi bu chet garmoniklar qarshilik va kondensatorda yutiladi.

Ishni bajarish tartibi

Yuqorida tushuntirib oztilgan sxemalar birgalikda yigilip, yagona elektroakustik generatorning sxemasi hosil qilinadi (13.2-rasm). Bunda generator oz-ozidan uyg'onuvchi sxemasida yigilgan bolib, sxemaning asosini p-n-p tipidagi MP41A tranzistorlari tashkil etadi. Tebranish konturi RC- elementlardan tashkil topgan. Bunda asosiy element kondensator S_1 bolib, uning qiymatining ozgarishi generatorning chiqishidagi akustik tebranishlarning chastotasining ozgarishiga olib keladi. Shu kondensatorning sigimini ozgartirib, elektroakustik generatori chastota xarakteristikasi, ya'ni uning chastotasi kondensator sigimiga bogliqlik statik funksiyasi $y(sh)=f(C)$ topiladi.




13.2-rasm. Elektroakustik generatorning prinsipial sxemasi

Elektroakustik generatorning chastotasi sigimning ma'lum qiymatlarda chastota olchagich bilan olchanadi. Barcha olchashlar quyidagi jadvalga toldiriladi.

13.1-jadval

| S, nF | S ₁ | | | | | | | |
|-----------|-----------------|--|--|--|--|--|--|--|
| Sh, Gs | sh ₁ | | | | | | | |

O'lchashlarning natijalari asosida $y(sh)=f(c)$ funksiyaning grafigi chiziladi (millimetrovkada).



13.3-rasm. O'lchash natijalari asosida $y(sh)=f(c)$ funksiyaning grafigi

O'lchanigan jadval ma'lumotlariga matematik ishlov berib, kichik kvadratlar usulini qo'llash bilan $y(sh)=f(c)$ boglanishning korrelyatsion tenglamasi topiladi.

Korrelyatsion tenglamani topish uchun quyidagi jadval bo'yicha hisoblashlar amalga oshiriladi.

13.2-jadval

| № | S,nf | W,kGs | Lg sh | InC.In sh | (ln x) ² | |
|----|----------------|----------------|-------|--------------|---------------------|--|
| 1. | C ₁ | W ₁ | | | | |
| 2. | C ₂ | W ₂ | | | | |
| 3. | C ₃ | W ₃ | | | | |
| 4. | C ₄ | W ₄ | | | | |
| 5. | C ₅ | W ₅ | | | | |

| | | | | | | |
|-----|-----------------|--------------------------------|------------------------|----------------------------------|--|--|
| 6. | C ₆ | W ₆ | | | | |
| 7. | C ₇ | W ₇ | | | | |
| 8. | C ₈ | W ₈ | | | | |
| 9. | C ₉ | W ₉ | | | | |
| 10. | C ₁₀ | W ₁₀ | | | | |
| 11. | C ₁₁ | W ₁₁ | | | | |
| 12. | C ₁₂ | W ₁₂ | | | | |
| 13. | | Summasi o'rtacha qiymati | $\sum_{i=1}^n \ln x_i$ | $\frac{\sum_{i=1}^n \ln x_i}{n}$ | | |

O'lchashlarning asosida $y(sh)=f(C)$ funksiyaning grafigi chiziladi (millimetrovkada).

O'lchanigan jadval ma'lumotlarini kichik kvadratlar usuli bilan ishlab $y(sh)=f(C)$ boglanishning korrelyatsion tenglamasi aniqlanadi.

| № | S,nf | sh, kGs |
|-----|------|---------|
| 14. | 500 | 11,03 |
| 15. | 1000 | 6,45 |
| 16. | 1500 | 5,75 |
| 17. | 2000 | 5,22 |
| 18. | 3300 | 3,95 |
| 19. | 4700 | 3,25 |
| 20. | 5700 | 2,6 |
| 21. | 8000 | 2,2 |
| 22. | 1000 | 6,6 |
| 23. | 3300 | 4,1 |
| 24. | 5700 | 2,5 |
| 25. | 500 | 11,3 |
| 26. | 4700 | 3,3 |
| 27. | 1000 | 6,5 |


14-LABORATORIYA ISHI

Kondensatorning sig'imini sotti ko'prigi yordamida tovush generatori orqali aniqlash

Kerakli asboblar:

Ikkita kondensator, o'zgarmas va o'zgaruvchan tok manbai, indikator.

Kirish. Kondensatorning sig'imini aniqlashda ko'priksxemadan foydalanish mumkin(14.1-rasm). Bu yerda C_0 ma'lum va C_x noma'lum sig'imili kondensator. Pasaytiruvchi transformatorning ikkilamchi o'ramidan AB reoxordga 10-20 v kuchlanish beradi. O'lchash prinsipi – indikator IN nolni ko'rsatgandagi ($V_A=V_B$) siljish D ning holati deyiladi: Muvozanat shartini ko'rib chiqamiz. DAE tarmoqdan dt vaqtida o'tgan elektr miqdori $q = J_1 \cdot dt$, $J_1 = (V_D - V_A)/r_1$ ga teng.



14.1-rasmda kondensatorning sig'imini aniqlashda ko'priksxemadan foydalanish mumkin

Ikkinchi tomonda bu yerda kondensator sig'imining ta'rifiga asosan:

U holda

$$q = C_x(V_A - V_E)$$

$$\frac{V_D - V_A}{r_1} dt = C_x(V_A - V_E)$$

Shunga o'xshash DBE tarmoq uchun:

$$\frac{V_D - V_A}{r_1} dt = C(V_A - V_E).$$

Oxirgi ikki ifodani quyidagidan olamiz:

$$C_x = C \frac{r_2}{r_1},$$

Bu yerda $V_A - V_B$ ekanini hisobga oldik.

$$r_1 = \rho \frac{l_1}{S}, \quad r_2 = \rho \frac{l_2}{S};$$

bo'lgan uchun (bu yerda ρ va S solishtirma qarshilik va reoxordning qo'llanilish kesimi); $l_1 = AD$ va $l_2 = DV$ reoxord

$$yelkalarning uzunligi \quad C_x = C \frac{l_2}{l_1}$$

$l_2 = l - l_1$ ekanligini hisobga olsak, / l – reoxord uzunligi/

$$C_x = C \frac{l - l_1}{l_1} \quad (14.1)$$

bo'ladi, zanjir tuziladi va o'qituvchining ruxsati bilan ish boshlanadi. Sxemada TG - tovush generator. Tel – telefon.

1. Reoxord siljishni surib, telefonda tovushning minimum bo'lighiga erishiladi, l_1 ning qiymati yozib olinadi. C ning qiymatini bilgan holda (1) ga C_x hisoblanadi.

2. O'lchash boshqa noma'lum C_{x2} kondensator uchun takrorlanadi, (1) ga asosan C_{x2} topiladi.

3. C_{X_1} va C_{X_2} kondensatorlar parallel va ketma – ket ulangan holda o'lchash takrorlanadi.

Olingan (C_X ketma – ket va C_X - parallel) qiymatlar nazariyadagi formuladan hisoblangan qiymatlar bilan taqqoslanadi.

Olingan natijalar jadvalga yoziladi.

14.1-jadval

| | C | I_1 | I_2 | C_X |
|-----------------------|-----|-------|-------|-------|
| Kondensator C_{X_1} | | | | |
| Kondensator C_{X_2} | | | | |
| Parallel ularsh | | | | |
| Parallel ularsh | | | | |

Sinov savollari:

1. Sig'im deb nimaga aytildi va qanday birlikda o'lchanadi ?
2. Bu sxemaga nima uchun o'zgaruvchi tok beriladi ?
3. Kondensatorlar parallel va ketma – ket ulanganda, sig'im qanday formula bilan hisoblanishini keltirib chiqaring.

Adabiyotlar

1. Исматуллаев П.Р., Кадирова Ш.А., Газиева Г.А. Электро радио измерения. Учебное пособие.-Ташкент: ТГТУ, 2007.
2. Исматуллаев П.Р., Кадирова Ш.А., Метрология асослари. Ўқув кўлланма. –Ташкент: Тафаккур, 2012.
3. Абдуллаев А.Х., Кадирова. Ш.А., Метрология, стандартизация и сертификация. Учебное пособие. - Ташкент: ТашГТУ, 2003.
4. Иванов Н.И. Инженерная акустика. Теория и практика борбы с шумом: Учебник. – М.: Университетская книга, Логос, 2008.
5. Щевьев Ю.П., Белоусов А.А. Аналитические методы расчета шумозащитных конструкций. -СПб.: Политехника, 2002.
6. G.K. Vijayaraghavan., R. Rajappan. Engineering metrolog and measurements. Department of Mechinal and Industrial Engg., Caledonian College of Engineering Muscat, Oman, 2009.
7. G.K. Vijayaraghavan., R. Rajappan. Metrology & Measurements. Department of Mechinal and Industrial Engg., Caledonian College of Engineering Muscat, Oman, 2008.
8. www.expolectronica.ru

Mundarija

Qaydlar uchun

| | |
|--|----|
| 1–laboratoriya ishi. Chiziqli va burchakli siljishlarni qo‘zg‘aluvchan o‘lchovchi chulg‘amli o‘zgartkich yordamida o‘lhash..... | 3 |
| 2–laboratoriya ishi. Chiziqli va burchakli kattaliklarni mexanik asboblar yordamida o‘lhash..... | 8 |
| 3 – laboratoriya ishi. Potensiometrik o‘lhash asboblari... | 16 |
| 4– laboratoriya ishi. Optoelektron siljish o‘zgartkichi... | 20 |
| 5 – laboratoriya ishi. Chiziqli va burchakli siljishlarni qo‘zg‘aluvchan ekranli elektromagnit o‘zgartkich yordamida o‘lhash..... | 24 |
| 6 –laboratoriya ishi. Chiziqli va burchakli siljishlarni qo‘zg‘aluvchan o‘zakli elektromagnit o‘zgartkich yordamida o‘lhash..... | 28 |
| 7 –laboratoriya ishi. Kirish kromkasining doirasimon shakli radiusini o‘lhash uchun radiusomer..... | 31 |
| 8 – laboratoriya ishi. Kichik siljishlar uchun optoelektron o‘zgartkich..... | 35 |
| 9 – laboratoriya ishi.... Tovushning havoda tarqalish tezligini rezonans usuli bilan aniqlash..... | 38 |
| 10 – laboratoriya ishi. Tovushning havoda tarqalish tezligini turgun toqlin usuli bilan aniqlash..... | 42 |
| 11 – laboratoriya ishi. Tovushning havoda tarqalish tezligini interfensiya usuli bilan aniqlash..... | 49 |
| 12– laboratoriya ishi. Matematik mayatnikning tebranish davri, chastotani va uning yordamida jismning erkin tushish tezligini aniqlash..... | 56 |
| 13–laboratoriya ishi. Chiqishda Π -shaklidagi signallarni beruvchi elektroakustik tebranishlar generatorining prinsipial sxemasini o‘rganish va xarakteristikasini olish..... | 60 |
| 14–laboratoriya ishi. Kondensatorning sig‘imini sotti ko‘prigi yordamida tovush generatori orqali aniqlash..... | 66 |

dots.Asimova M.M., k.o□q. Kenjayeva Z.S.

**CHIZIQLI BURCHAKLI VA AKUSTIK
O'LCHASHLAR**

Muharrir: Sidikova K.A.

Musahhih: Miryusupova Z.M.